



TARAQQIYOT MEZONLARI

QULAY BIZNES MUHITI VA JOZIBADOR IMTIYOZLAR

TADBIRKORLAR SAFINI KENGAYTIRISHDA MUHIM OMIL



Jamiyatda tadbirkorlar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha jadal boraveradi. Qayerdagi tadbirkorlik uchun qulay muhit, zarur sharoit yaratilsa, biznes vakili har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, erkin va samarali faoliyat yuritishiga ko'maklashilsa, o'sha yerda xalq farovonligi oshib, barcha sohalarda o'sish kuzatiladi.

Masalaga shu nufuzli nazardan yondashilsa, ushbu yo'nalishni rivojlantirishning bugungi kundagi ahamiyati va zaruratini anglash qiyin emas. Bu borada yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar ham mutlaqo yangicha. So'nggi yillarda tadbirkor davlatning ishonchli hamkori, davlat esa har

bir biznes vakilining yaqin do'stiga, ha, aynan do'stiga aylandi. Buni ularga berilayotgan keng imkoniyatlar, katta imtiyozlar misolida ham ko'ryapmiz. 2017-2022-yillar bo'yicha oladigan bo'lsak, bu vaqt davomida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda tizim vakillari huquqlarini himoya qilishga

doir 3 mingdan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilinganini aytish kerak. Asosiyi, bular faqat qog'ozda qoladigan qarorlar bo'lmas, bevosita hayotga ko'chib, qisqa fursatda amaliy natijalar ham bera boshladi.

▶ Davomi 4-betda

O'ZBEKISTONDA MILLIY JURNALISTIKANING RIVOJLANISHI BO'YICHA O'ZBEKISTON JURNALISTLAR UYUSHMASINING I MILLIY MA'RUZASI

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 27-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan 2022-2023-yillarda ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash hamda jurnalistika sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturida joriy yildan boshlab har yili O'zbekistonda milliy jurnalistikaning rivojlanishi bo'yicha O'zbekiston Journalistlar uyushmasining milliy ma'ruzasini tayyorlash va e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yish belgilangan.

Bunday tartibning joriy etilishi yurtimizda media soha rivoji yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarga nazar tashlash, tahlil qilish, erishilgan yutuqlarni e'tirof etish, qolaversa, milliy jurnalistikamizda yuzaga kelgan muammo va kamchiliklar xususida keng omma va jurnalistlar jamoatchiligiga axborot berish, ushbu masalalarga birgalikda yechim izlash imkoniyatlarini yaratadi. Shuning barobarida, milliy jurnalistikaning har jihatdan rivojlanishiga turtki beradi, deb hisoblaymiz.

E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu ma'ruza Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda O'zbekiston Milliy media birlashmasi bilan hamkorlikda, shuningdek, O'zbekiston Journalistlar uyushmasi boshqaruvi a'zolari va hududiy bo'limlari rahbarlari, uyushma huzurida faoliyat yuritayotgan ijodiy kengashlar mas'ullari, soha ekspertlari, bir so'z bilan aytganda, keng jurnalistlar jamoatchiligi taklif va tavsiyalari asosida tayyorlandi.

Sohaga oid islohotlar samarasi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari lavozimiga kirishgan dastlabki kunlardan boshlab matbuot va so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillashtirish,

soha vakillarini har jihatdan qo'llab-quvvatlashga doimiy ravishda alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Bir misol, davlatimiz rahbarining 2017-yil 10-avgustdagi "O'zbekiston Journalistlari ijodiy uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori uyushma faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu hujjat ijrosi doirasida besh-olti nafar xodim ishlaydigan uyushma markaziy apparatida 23 ta shtat birligi, tashkilotimizning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'limlari tashkil etildi. Uyushmaning jamoatchilik asosida faoliyat yuritgan hududiy bo'limlari rais va xodimlariga uchta shtat birligida oylik maosh belgilandi. Uyushma va O'zbekiston Milliy matbuot markazi moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Har yili mamlakatimizdagi faxriy jurnalistlardan 100-200 nafarini "Hurriyat" gazetasiga uyushma hisobidan obuna qilish yo'lga qo'yildi.

Uyushmaga a'zolarni qabul qilish tiklandi, yangi namunadagi a'zolik guvoohnomasi, ilgari bo'lmagan a'zolik ko'krak nishoni tayyorlandi.

2017-2022-yillar mobaynida 600 ga yaqin faxriy va ehtiyojmand jurnalistga moddiy yordam ko'rsatildi. Ko'makka muhtoj bemor jurnalistlar salomatligini tiklashga mablag' yo'naltirildi. "Yosh yuraklar sadosi" seriyasi ostida 100 dan ziyod yosh jurnalistning eng sara



maqolalari jamlangan ikkita to'plam-kitob nashr etildi.

Bugungi kunda ham mazkur yo'nalishdagi ishlar davom etmoqda.

Davlatimiz rahbarining qat'iy siyosiy irodasi tufayli jurnalistikaga oid islohotlar ortga qaytmas tus oldi. Buni nafaqat sohamiz, balki keng jamoatchilik vakillari, xalqaro ekspertlar ham alohida e'tirof etib kelayotir.

Keyingi yillarda sohada izchil amalga oshirilgan islohotlar, ochiqlik siyosati ommaviy axborot vositalari xodimlarini ruhlantirdi. Ularning faollashishiga turtki berdi, istagan mavzu bo'yicha materiallar tayyorlash mumkinligiga, bunga hech qanday to'siq yo'qligiga ishonchi oshdi. Ayni paytda jurnalist va blogerlar tomonidan joylarda yuzaga kelgan muammolar qo'rqmasdan dadil ko'tarib chiqilib, ijtimoiy tarmoqlarda ham e'lon qilish keng ommalashdi. Eng muhimi, tanqidiy-tahliliy chiqishlar, bildirilayotgan takliflar, fikr-mulohazalardan so'ng ko'plab masalalarga yechim topilib, muammolar joiy hal etilmoqda, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar, qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilmoqda. Vaholanki, ilgari bunday holatlar kamdan-kam kuzatilar edi.

▶ Davomi 3-betda

NIGOH

XONADONLAR FAROVON, KO'NGILLAR CHAROG'ON



Bugun Navoiy viloyatining barcha shahar-u qo'rg'onlari, qishlog'-u ovullari yangilanishlarga yuz tutmoqda. Viloyatda aholi maskanlari va ularning infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning nechog'liq keng ko'lamli ekani raqamlarda ham aks etmoqda. Jumladan, viloyatda joriy yil tadbirkorlarning o'z mablag'lari hisobidan 1514 ta xonadonga mo'ljallab barpo etiladigan uy-joylar aholi ehtiyoji uchun foydalanishga topshiriladi.

Qurilish va kommunal sohalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish orqali aholi turmush sharoitini yaxshilash, munosib hayot tarzini yaratib berishga qaratilgan islohotlar bois, xalqimiz bugungi kunidan mamnun, o'z uy-

joyiga, zamonaviy turmush sharoitlariga ega bo'lmoqda, xonadonlarga farovonlik, obodlik kirib bormoqda.

▶ Davomi 2-betda

TAHLIL

KONSTITUTSIYA, MILLIY MAFKURA VA MA'NAVIYAT:

QAT'IIY POZITSIYALAR ZARURATI



Mafkuraviy jihatdan o'ta tahlilali zamonda yashayapmiz. Shuning uchun ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish, shu asosda uni sog'lomlashtirish, zamon va makon o'rtaga qo'yayotgan ko'plab qaltis savollarga xolis javoblar topish, uni xalq ong-tafakkuri va qalbiga yetkazish hamisha jamiyatning muhimdan-muhim vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

Milliy mafkura va ma'naviyat o'z-o'zidan ado etib ketilaveradigan vazifa emas. Har qanday mamlakat taraqqiyotiga erishish, xalq tinchligini saqlash, turli ijtimoiy qatlam, diniy konfessiyalar, millat va elat, jinslar o'rtasida tenglik siyosatini yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilish, xalqaro maydonda yuksak obro'-e'tibor qozonishni ta'minlash uchun hamisha mustahkam, har tarafama takomillashtirish, yangi zamon talablariga to'la javob beradigan mukammal tizim yaratilishi va jamiyatda milliy mafkura hamda ma'naviyat targ'iboti texnologiyasi faol ishlab turmog'i zarur.

▶ Davomi 6-betda





OBOD MANZILLAR

mashinani maza qilib minib yuribmiz. Albatta, birgina pomidorning orqasidan bir yilda mashina sotib olganimizga ko'pchilik ishonmasligi aniq. Lekin mehnat qilsa, barchasiga erishish mumkin. Masalan, erta bahordan pilla qurti bo'qdik. Uning puliga ikki bosh qoramol sotib oldik. Pomidor ko'chatlari o'tqazilgach, dalada poliz orasidan chiqqan begona o'tlar bilan chorvani boqishni boshladik. Unga yemish dlamizning o'zidan chiqdi. Hosil yig'ishtirib olingandan keyin o'rniqa arpa ekdik. Yil yakuniga kelib, jami olgan daromadimiz bitta mashinaga yetdi. Nasib etsa, joriy yilda yanada ko'proq mablag' ishlab topamiz degan niyatdamiz.

Bunday imkoniyatdan foydalanib, o'zini o'zi band qilgan birgina Sohiba opa emas. Mahallaning ko'pgina xotinqizlari dehqon xo'jaligi tashkil etib, ham ro'zg'orni, ham bozorni obod qilmoqda.

Mahalla xotin-qizlar faoli Shahlo Bahridinovaning ta'kidlashicha, o'tgan yili "Ayollar daftari"ga kiritilgan sakkiz ayolning barchasiga yer maydoni ajratilib, daftardan chiqarilgan. Bugun ular qishloqning eng faol ayollari qatorida farovon turmush kechirmoqda. Hozir "Ayollar daftari" bo'sh. Bu esa aholining turmush darajasi yaxshilanganidan dalolat beradi.

o'n besh-yigirma kundan so'ng terishni boshlab, sotuvga chiqaramiz. Shuncha yildan beri bekor vaqt sarflab yurgan ekanmiz. Mehnat qilsa, barchasiga erishish mumkin ekan. Hozir shuning ortidan uy-joylarimizni ta'mirlab oldik, to'y qilishga hozirlik ko'ryapmiz. Ummun, yashash tarzimiz o'zgardi.

Bugun Berdioli mahallasida besh mingdan ziyod aholi yashaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili bu yerda 152 nafar ishsiz bor edi, bugun ular safi anchagina kamaygan. Bu qishloq odamlari har bir qarich yerdan unumli foydalanishni yaxshi biladi. Kichik tomorqasiga kartoshka, sabzi, pomidor ekib, yaxshigina sarmoya ishlab topayotganlar ko'p.

orzulari ham yaxshi tomonga o'zgardi. Ayniqsa, qishloqning yillar davomida qarovsiz qolgan yo'li asfalt qilinishi ko'pchilikni quvontirdi. Bundan tashqari, 100 o'rinni maktabgacha ta'lim, 300 o'rinni umumta'lim maktabi binosi hamda shi-nam va zamonaviy ko'rinishdagi mahalla guzari yaqin kunlarda to'liq qurib bitkaziladi.

Barcha qulayliklarga ega bog'cha binosi qurilishi deyarli yakuniga yetkazilib, tashqi va ichki pardoqlash ishlari olib borilmoqda. Barcha obyektlar "Ozod ibrat kapital" qurilish korxonasi tomonidan barpo etilyapti.

Uchta obyektning qurilishi bir vaqtda boshlangan, — deydi "Ozod ibrat kapital" qurilish korxonasi ish yurituvchisi Rustam Ashurov. — Hozir ularda jami 120 ishchi mehnat qilyapti. Bog'cha va maktab binolaridagi sharoitlar juda zamonaviy bo'ladi. O'ziga xos ko'rinishga ega mahalla guzari esa hademay qishloqqa o'zgarib baxsh etishi aniq. Binoda mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi uchun alohida xonalar bor. Yon tomonida yana qo'shimcha to'rtta alohida xona qad rostlagan. Bu xonalar tadbirkorlik qiluvchilar uchun ajratiladi. Bu yerda qandolatchilik va tikuvchilik kabi yo'nalishlarda ish boshlash mumkin.

Hikoya qilayotganimiz birgina mahalladagi o'zgarishlar, albatta, yurtimizdagi islohotlarning bir ko'rinishi. Bugun mahallada bekor o'tirgan kishiga ko'zingiz tushmaydi. Kimdir dalada, yana birov tomorqasida o'z ishi bilan band. Asosiysi, ko'ngillar shod, mehnat ortidan har bir xonadonga fayz kirib borayotgan bo'lsa, mahallaning ko'rinishi ham shunga yara-sha chiroy ochmoqda.

Mahallamizda ikkita qishloq bor, — deydi "Berdioli" MFY raisi Berdi Shukurov. — Mana shu qishloqimiz o'rtasidan o'tgan bitta yo'ldan to'rt-beshta qishloq aholisi foydalanadi. Lekin to'g'risini aytganda, bir necha yillardan beri shuni ta'mirlash armon bo'lib kelayotgandi. Shunchalik e'tibor qaratib, yo'llarimizni ravon qilib berishdi. Yo'l quruvchilar kelib, ishni boshlagach, yo'lining faqatgina Berdioli qishlog'i hududiga qarashli qismi asfalt qilinishini aytishdi. Shunda oqsoqollar bilan birga qo'shni qishloqlarga tutash joylarni ham asfalt qilib bersangiz, deya iltimos qildik. Katta rahmat, yo'q deydik. Shu sabab yon-atrofdagi qishloqlarimiz ham obod bo'lib qoldi. Jami 14 kilometr asfalt yotqizildi. Boshqa yangi qurilishlarni aytmangiz ham bo'ladi. Xullas, bizda barchasi zo'r. Mahallamiz ham, odamlarimizning ko'ngli ham obod bo'lmoqda.

Yuqorida guvohi bo'lganingizdek, islohotlar natijasida odamlarning azaliy orzulari ushlab, manzillar obodlik va ko'rkamlikka yuz tutmoqda. Bunday misollarni yurtimizning har bir manziliida uchratishingiz aniq.

— Shu kungacha 980,2 kilometr elektr uzatish tarmog'i va 255 ta transformator punkti mukammal hamda 1274,6 kilometr elektr uzatish tarmog'i, 351 ta transformator punkti joriy ta'mirlandi. Yil yakuniga qadar yana 419,5 kilometr elektr uzatish tarmog'i, 110 ta transformator punkti va 8 ta podstansiya mukammal hamda 1955 kilometr elektr uzatish tarmog'i, 558 ta transformator punkti, 62 ta podstansiya shunday ishlar bajariladi. Natijada 178 ta mahalladagi 22,5 ming xonadon hamda 3,5 mingdan ortiq ulgurji iste'molchining elektr ta'minoti yanada yaxshilanadi, — deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati Navoiy hududiy filiali direktori Bobur Islomov.

Bunday ezgu ishlar mamlakatimiz chiroylar chiroy qo'shish bilan birga yurtdoshlarimizning kayfiyati, turmush darajasi, dunyoqarashini o'zgartirib, bugungi hayotdan rozilik, ertangi kunga mustahkam ishonchini yanada kuchaytirmoqda.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

AZALIY ORZULAR USHALGANDA HUDUDLAR KO'RKAMLIKKA YUZ TUTADI

“BUGUN BERDIOLI MAHALLASIDA BESH MINGDAN ZIYOD AHOLI YASHAYDI. MA'LUMOTLARGA KO'RA, O'TGAN YILI BU YERDA 152 NAFAR ISHSIZ BOR EDI, BUGUN ULAR SAFI ANCHAGINA KAMAYGAN. BU QISHLOQ ODAMLARI HAR BIR QARICH YERDAN UNUMLI FOYDALANISHNI YAXSHI BILADI. KICHIK TOMORQASIGA KARTOSHKA, SABZI, POMIDOR EKIB, YAXSHIGINA SARMOYA ISHLAB TOPAYOTGANLAR KO'P.

"Ayollar daftari" bo'sh qoldi

Sohiba Suyunova "Ayollar daftari"ga ro'yxatga qo'yilganda shunchaki rasmiyatchilik deb o'ylagandi. Keyin ko'pchilik qatori unumdor yerdan unga ham 30 sotix yer berilishini eshitganida, quloqlariga ishonmadi.

— Rosti, "Ayollar daftari"ga ro'yxatga qo'yishayotganda, buning menga nima nafi bor ekan, degandim, — deydi S.Suyunova. — Shunchaki, o'zlar uchun bo'lsa kerak, deya e'tibor qilmagandim. Bugun esa buning ortidan barqaror daromad manbaiga ega bo'ldim. Yer berishganidan so'ng ko'nglim ko'tarilib, yurtimizda hech kim e'tibordan chetda emasligini angladim. Bor kuchimni yerga sarfladim, ter to'kdim. Hozir ham daladamiz. Kishi o'z mehnati mahsulini ko'rsa, undan foydalansa, ro'zgorini obod qilsa, bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak. Yaxshi yashashimiz uchun, avvalo, o'zimiz intilishimiz kerak. Olma pish, og'zimga tush, degan bilan ish bitmaydi. O'zimiz guvohi bo'lib turibman, aynan shu dalada ketmon ko'tarib ishlagan kishilar to'y qilmoqda, mashina olmoqda, farzandlarini oliyohlarda o'qitmoqda.



"Yashash tarzimiz o'zgardi"

Elyor Qurbonov 35 yoshda. Berdioli qishlog'ida ish yo'qligi bois, har xil yumushlar bilan shug'ullanib yurardi. Lekin tayin ish bo'lmagani uchun topish-tutishda baraka bo'lmasdi. Bir amallab topgani ro'zgoridan ortmasdi. Dehqon xo'jaligi uchun yer ajratilishini eshitib, mahallaga murojaat qildi. Tegishli tartibda hujjatlarni rasmiylashtirib, auksion orqali ko'pchilik qatori 30 sotix yer olganida undan baxtliroq odam yo'q edi. Qo'lga ketmon olib, bor mehri ni yerga berdi. Timmay mehnat qildi. Natijasi esa chakki bo'lmasdi.

— O'tgan yili pomidor ekkandim, — deydi E.Qurbonov. — Mahsulot pishib yetilgach, xaridor ham izlab yurmadi. O'zlar shu yerdan olib ketdi. Hisobimga ko'ra, xarajatlardan tashqari ellik million so'mdan ortiq sof daromad qildim. Bu yil ham yaxshi bo'ladi, degan umiddamiz. Hozirdanoq xaridorlar buyurtma qilishni boshladi. Uzog'i bilan yana

Shaharga aylanayotgan qishloq

Yaxshi niyat — yarim davlat. Berdioli qishlog'i odamlari yashash tarzi yaxshilanib, ko'ngillari obod bo'lavergach,

Adashmasam, bundan to'rt-besh yil oldin aholi turmush darajasi, yashash sharoitini o'rganuvchi respublika ishchi guruhi bilan viloyatning ayrim tumanlaridagi mahallalarda bo'lgandim. Sir emas, o'shanda ayrim qishloq yoki mahalla guzarlarida bekorchilikdan davra qurib o'tirgan odamlarni ko'p uchratgandik. Suhbat jarayonida ularda boqimandalik kayfiyati borligini sezish qiyin emasdi. Aslida, kunini samarasiz o'tkazayotganini anglamagan aksar odamlar faqat nolishdan nariga o'tmagandi.

Bugun o'sha holatning umuman teskarisi, desam mubolag'a bo'lmasa kerak. Bu gapga zarracha shubhasi bor kishi bemalol voha bo'yab sayohatga chiqsa, bunga amin bo'lishi aniq. Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan manzil esa bunga yorqin misoldir.

Qamashidagi "Berdioli" mahalla fuqarolar yig'ini tumaning olis manzillaridan biri. Bundan ikki-uch yil oldin bu hududga xarobasi chiqqan yo'llardan yurib borgan kishining ko'ngli xunob bo'lib, ortiga qaytib ketishi aniq edi. Bugun nafaqat yo'l, balki butun mahalla obod manzilga aylanoqda. Aholining bandligi ta'minlanib, turmush farovonligi ortmoqda.

"Bir yilda mashina oldik"

O'tgan yili mahallada bandlikni ta'minlash maqsadida kattagina

tashabbusga qo'l urildi. Hududdagi suvli, unumdor yerdan ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turuvchilarga auksion orqali 30 sotixdan yer berildi. Buning ortidan bir yilda avtomashina pulini ishlab topganlar ham bo'ldi.

— Turmush o'rtog'im Lobar Obilova mahallada "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turardi, o'zim ham ishsiz edim, — deydi Davron Berdiyev. — Shu sababli o'tgan yili dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun 30 sotix yer berishdi. Bolaligimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelimiz. Shu bois, auksion orqali olgan maydonga pomidor ekdik. Astoydil mehnat qildik. Natija yomon bo'lmasdi. O'tgan yili poliz mahsulotlari narxi ham yuqori bo'lganidan katta daromad olishga erishdik. Buning evaziga ancha yildan beri orzu qilib yurgan "Gentra" avtomashinasini xarid qildik. Hozir

NIGOH

XONADONLAR FAROVON, KO'NGILLAR CHAROG'ON

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, qurilish ishlariga yangicha yondashuvlar aholiga qator qo'shimcha qulayliklar yaratilishida muhim omil bo'lmoqda. Yurtimiz bo'yab yangicha yondashuv asosida uy-joylar qurilishiga kirishilgan aholining uy-joyga ehtiyojini qanoatlantirish bilan birga, qishloqlarda ham shahardagidek sharoitlar yaratish imkonini bermoqda. Uylar bilan birga muhandislik va yo'l infratuzilmasi, ijtimoiy soha obyektlari, xizmat va servis obyektlari ham qurilmoqda.

Hozir viloyatning Karmana va Qiziltepa tumanlaridagi "Yangi O'zbekiston" massivlarida 620 xonadonli 26 ta uy-joy, 1 ta maktab, 2 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 2 ta oilaviy poliklinika va uy-joylarning birinchi qavatida turli xizmat ko'rsatish va servis obyektlari barpo etilishi yakunlanmoqda. Ushbu xonadonlar subsidiya asosida berilayotganidan xalqimiz mamnun.

Aholini ichimlik suv bilan ta'minlash masalasi alohida e'tiborda. Jumladan, joriy yilda toza ichimlik suv ta'minotini



yaxshilash maqsadida davlat dasturlari va boshqa manbalar hisobidan jami 200 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'natirilishi

belgilangan. 801,8 kilometr uzunlikdagi ichimlik suv quvuri tortish hamda 15 ta suv inshootida qurilish-ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan. Bugungi kunga qadar 430,3 kilometrdan ortiq yangi ichimlik suv quvuri tortilib, 14 kilometrga yaqini ta'mirlandi. Shuningdek, 15 ta suv inshootida qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilmoqda.

Bundan tashqari, yil yakuniga qadar 371,5 kilometr yangi ichimlik suv quvuri tortilib, 15 ta suv inshootidagi qurilish-ta'mirlash ishlari yakuniga yetkaziladi. Natijada 48 ta mahalladagi 56,3 mingdan ortiq aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanadi, 29 ta mahalladagi

74,4 ming aholining ichimlik suv ta'minoti yanada yaxshilanadi. Bu ishlar yakunlangach, aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi joriy 76 foizdan 81,5 foizga yetkaziladi.

Xatirchi tumanidagi Chechak ota mahallasida ham aholini uzoq yillar qiyin kelgan ichimlik suv muammosi barham topdi. Obihayot bugun fuqarolar xonadonigacha kirib bordi.

— Mahallamizda har tomonlama o'zgarishlar, obodlik kishi ko'zini quvontiradi. Yo'llarimiz ta'mirlandi, yangi binolar qad ko'tardi. Ayniqsa, ichimlik suv necha yillik muammomiz edi. Mahallamiz shu masalada juda qiyinalardi. Hozir esa toza ichimlik suv xonadonimizgacha olib kirib berildi. Inson qadri deganlari shu emasmi? Mahalladoshlarimiz quvonchini ta'riflashga tilim ojiz. Hozir mahallamizda aytarli muammo yo'q. Ta'lim maskanlari, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari — barchasi ishlab turibdi. Yashash uchun barcha sharoit bor, — deydi Chechak ota mahallasida yashovchi mehnat faxriysi Eshpo'lat Jumayev.

"Yo'l qurgan elda aziz", degan hikmat bor. Bugun ana shunday aziz insonlar — yo'zozlarning tinimsiz mehnati evaziga viloyatda yo'llar yanada ravon, manzillar yaqin bo'lmoqda. Hududlarda mahalliy va ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

2023-yilning o'tgan davrida viloyatda barcha dasturlar doirasida yo'l ta'miri uchun 248 milliard so'm ajratildi hamda 568,4 kilometr avtomobil yo'li, shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari



ta'mirlandi. Shundan 314 kilometrini asfalt, 29 kilometrini sement-beton va 225,4 kilometrini shag'al yo'llar tashkil etadi.

Shuningdek, mahalliy hokimliklar, sektor rahbarlari, shahar, tuman Xalq qabulxonalarida hamda bir qator tashkilotlar hamkorligida tegishli korxonalarining maxsus texnika vositalari jalb etilgan holda hashar yo'li bilan dasturlarda ko'zda tutilmagan 40 dan ortiq mahalla va qishloq aholi punktidagi 105 kilometr tuproq yo'lga shag'al yotqizildi. Joriy yil yakuniga qadar 211 milliard so'm hisobiga yana 213 kilometr avtomobil yo'lida rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari bajarildi.

Aholini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash masalasi ham doimo e'tiborda. Jumladan, joriy yilda 1399,7 kilometr elektr uzatish tarmog'i, 8 ta podstansiya, 365 ta transformator punktida mukammal hamda 3229,6 kilometr elektr uzatish tarmog'i, 62 ta podstansiya, 909 ta transformator punktida joriy ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan.

— Shu kungacha 980,2 kilometr elektr uzatish tarmog'i va 255 ta transformator punkti mukammal hamda 1274,6 kilometr elektr uzatish tarmog'i, 351 ta transformator punkti joriy ta'mirlandi. Yil yakuniga qadar yana 419,5 kilometr elektr uzatish tarmog'i, 110 ta transformator punkti va 8 ta podstansiya mukammal hamda 1955 kilometr elektr uzatish tarmog'i, 558 ta transformator punkti, 62 ta podstansiya shunday ishlar bajariladi. Natijada 178 ta mahalladagi 22,5 ming xonadon hamda 3,5 mingdan ortiq ulgurji iste'molchining elektr ta'minoti yanada yaxshilanadi, — deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati Navoiy hududiy filiali direktori Bobur Islomov.

Bunday ezgu ishlar mamlakatimiz chiroylar chiroy qo'shish bilan birga yurtdoshlarimizning kayfiyati, turmush darajasi, dunyoqarashini o'zgartirib, bugungi hayotdan rozilik, ertangi kunga mustahkam ishonchini yanada kuchaytirmoqda.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



O'ZBEKISTONDA MILLIY JURNALISTIKANING RIVOJLANISHI BO'YICHA O'ZBEKISTON JURNALISTLAR UYUSHMASINING I MILLIY MA'RUZASI

Boshlanishi 1-betda

Keyingi yetti yilda sohaga qaratilgan alohida e'tibor, yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlar tufayli mamlakatimizdagi ommaviy axborot vositalari soni 1514 tadan 2140 taga ko'paydi. Ularning 65 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi. Shundan 1255 tasi gazeta va jurnal, 18 tasi axborotnomadir. 116 tasi teleradiokanal bo'lib, internet nashrlar soni 395 tadan 745 taga oshdi. Demak, birgina internet nashrlar soni 350 taga ortgan.

Ayonki, jurnalistlar nafaqat internet nashrlar, gazeta va jumalalar, teleradiokanallarda, balki vazirlik, korxonalar va tashkilotlarning axborot xizmatlarida ham faoliyat yuritadi.

Prezidentimizning 2019-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga binoan, barcha davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari faoliyati qayta ko'rib chiqildi, zamonaviy talablar asosida tashkil qilindi.

Keyingi yillarda sohadagi bu kabi islohotlar doirasida respublika ahamiyatiga molik 280 dan ortiq idora, muassasa, davlat va xo'jalik boshqaruvi organi, viloyat, tuman va shahar hokimliklarida birinchi marta axborot xizmatlari faoliyati yo'lga qo'yilib, 98 ta davlat organi va tashkilotida qayta tashkil etildi. Besh yil avval axborot xizmatlari sohasida jami 433 mutaxassis-jurnalist faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 1300 dan ortgan.

Albatta, sohadagi bu kabi o'sish barobarida OAVda zamonga mos ravishda faoliyat yuritish, tezkorlikka intilish kuchaydi. Jumladan, materiallar tayyorlashning yangi-dan-yangi usullari bo'y ko'rsatmoqda.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha

Barcha soha, jumladan, jurnalistika rivoji ham bevosita kadrlar salohiyatiga bog'liq. 2018-yil may oyida davlatimiz rahbarining tashabbusi va qarori bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi.

Markaziy Osiyo va MDHda yagona bo'lgan mazkur ta'lim dargohida ayni kunda 3350 nafardan ziyod talaba tahsil olmoqda. Boshqacha aytganda, bu yerda media va ijtimoiy sohalarga oid o'n yettita bakalavriat ta'lim yo'nalishi va shuncha magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Ya'qinda universitetda ilmiy faoliyatni rivojlantirish uchun "Markaziy Osiyoda media va kommunikatsiyalar" xalqaro ilmiy jurnali nashr etilishi yo'lga qo'yildi.

Tezkorlik bilan rivojlanayotgan davrda har tomonlama professional jurnalist kadrlarga ehtiyoj katta. Jurnalistika o'qitilayotgan oliy o'quv yurtlarida ilmiy salohiyat ko'rsatkichlari yuqorilab borayotgani, nazariya va amaliyotning uyg'un tashkil etilayotgani, ilmiy izlanishlar qilyotganlar orasida yoshlar ko'pligi quvonarli. Keyingi yillarda ushbu oliy ta'lim muassasasi huzuridagi ilmiy kengashda 26 o'qituvchi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), 4 olim esa filologiya fanlari doktorligini (DSc) himoya qildi. Shuningdek, O'zDJTU huzuridagi bir martalik kengashda 4 olim, O'zMU va QDU huzuridagi ilmiy kengashlarda 1 nafardan olim (DSc) doktorlik ishini muvaffaqiyatli yoqladi.

Taniqli ma'rifatparvar, jaded matbuotning yetakchi vakillaridan biri Abdulhamid Cho'lpon ishtirokida 1918-yili ta'sis etilgan "O'zbekiston matbuoti" jurnali qayta tiklandi va Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi ilmiy jumalar qatorida faoliyatini davom ettirmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Qoraqalpog' davlat universiteti kabi o'ndan ortiq oliy ta'lim dargohida jurnalist kadrlar tayyorlanmoqda. Bundan tashqari, xorijiy oliy ta'lim muassasalarining yuritmizdagi ayrim filliallarida ham sohamiz uchun mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgani o'ziga xos ijobiy raqobatni yuzaga keltirdi.

Jurnalistikaga oid quvonchlikning takomillashuvi

Keyingi yillarda sohaga oid 3 ta qonun, Prezidentimizning 2 ta farmoni va 4 ta qarori, hukumatning 10 ga yaqin qaror va farmoyishi tufayli. Buning natijasida mamlakatimizda axborot olish va axborotlashtirish, so'z erkinligi hamda davlat organlari va tashkilotlari ochiqligini ta'minlash, sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qator yangiliklar joriy etildi, imtiyoz va imkoniyatlar yaratildi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'stinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi kabi yangi norma va moddalarning mustahkamlab qo'yilishi tarixiy voqea bo'ldi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida axborot siyosatini yuritishning asosiy ustuvor vazifalari sifatida:

— ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlarning kasbiy faoliyati himoyasini yanada kuchaytirish;

— odamlarni qiynayotgan muammolar hamda islohotlar ijrosi ahvolini o'rganishda ularning mehnatidan samarali foydalanish;

— ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o'z vaqtida berib borish orqali yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish;

— mamlakatimizda bugungi islohotlar talabiga javob beradigan ijtimoiy mas'uliyatli ommaviy axborot vositalarini shakllantirish

Prezidentimizning 2022-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan, 2022-yil 1-iyuldan 2025-yil 1-iyulgacha qadar ommaviy axborot vositalari foyda solig'ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foiz kamaytirilgan soliq stavkalari bo'yicha to'lashi joriy etildi.

Faol jurnalistlarni muntazam rag'batlantirish maqsadida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan 100 tagacha eng yaxshi materiallar mualliflarini bazaviy hisoblashning 50 barobarigacha miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlash belgilandi.

Qaror ijrosi doirasida joriy yildan "Oltin

o'rtasida tuzilgan memorandumga ko'ra jurnalist va blogerlarga huquqiy maslahatlar berib borilmoqda.

Har bir sohada, jumladan, jurnalistikada ham xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, uyushmada mazkur yo'nalish bo'yicha ishlarni jonlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uyushma tomonidan Rossiya, Janubiy Koreya, Tadjikiston jurnalistlar uyushmalari bilan hamkorlik memorandumlari imzolangan. Joriy yilning 15-iyun kuni O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi bilan Umumxitoy jurnalistlar uyushmasi o'rtasida tuzilgan hamkorlik kelishuvi yangilandi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar axborot agentliklari tajribasini chuqur o'rgangan hol-

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan bosma nashrlarning ahvoli hamon og'irigicha qolmoqda. Xususan, bugungi kunda ko'plab tuman gazetalarini chop qilmayapti, chop etilayotganlari ham juda kam adadda. Hatto bir paytlar tiraj jihatidan sobiq ittifoqda yuqori ko'rsatkichlarni egallagan "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Qishloq hayoti", "Toshkent oqshomi", "Вечерний Ташкент" singari nashrlarning 1000 nusxa atrofida chiqayotgani g'oyatda tashvishlanarlidir. Ushbu gazetalar muassislari bu borada aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishi shart.

Bugun respublikamizda 10 mingdan ziyod maktab faoliyat ko'rsatmoqda. Ayni kunda o'quvchilarning asosiy nashrlari bo'lgan "G'uncha" jurnali 3200, "Gulxan" jurnali 3362, "Tong yulduzi" gazetasi esa 2056 adadda chop etilmoqda. Bu holat mamlakatimizdagi maktablarga gazeta va jumalalar kam yetib borayotganini anglatadi.

Bugun bu borada dunyo tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan AQSH, Yaponiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda minglab, millionlab nusxada chop qilinayotgan bosma nashrlarni ko'rish mumkin. Ushbu davlatlar tajribasidan ham o'rganish, qaysidir ma'noda ulgi olish kerakdir.

Shu o'rinda gazeta va jumalalar tirajini ko'paytirish uchun, birinchi navbatda, ularning o'qishlik darajasini oshirish, o'quvchilar qiziqib mutolaa qiladigan bo'lishini ta'minlash ham juda muhimligini ta'kidlash joiz.

Endi so'zimizni kasbiy faoliyatimizga oid ayrim mulohazalar bilan davom ettirsak. Gap shundaki, ba'zi hamkasblarimiz kasb etikasi qoidalari, ommaviy axborot vositalariga oid quvonchlik talablariga har doim ham rioya etmayapti.

Davlat va nodavlat teleradiokanallarida yengil-yelpi, ijtimoiy yuki yengil ko'rsatuv va eshittirishlar soni oshib borayotganini yashirib bo'lmaydi. Ma'no-mazmuni hamin-qadar ko'rsatuvlar ko'payib, e'fir titrlarida imloviy xatolar uchramoqda.

Bu kabi holatlar barafar etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish lozim.

Yana bir masala. To'g'ri, bugun OAVda e'lon qilingan tanqidiy materiallarga mas'ullar tomonidan munosabat bildirish jonlandi. Ammo, ochiq aytganda, bu yetarli darajada emas. Hisobotlarda bu boradagi ko'rsatkichlar negadir yuqori. O'rganishlar bildirilayotgan munosabatlarning muayyan foizi o'ta yuzaki va xo'jako'rsingga ekani ko'rsatmoqda.

Ayrim jurnalist va blogerlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarga insonning shaxsiy ma'lumotlari, uning sha'ni va qadr-qimmatiga daxl qiladigan, ba'zan ochiqdan-ochiq zo'rovonlik va haqorat ko'rinishidagi post va izohlarni joylashtirish holatlari uchrayotgani ham tashvishli.



2016	Рўйхатдан ўтган OAV сони	2023	
1514	ЖАМИ ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ СОНИ	2140	+41%
691	ГАЗЕТА	632	-9%
309	ЖУРНАЛ	623	+101%
15	АХБОРОТНОМА-БОЛЛЕТЕНЬ	18	+20%
-	АХБОРОТ АГЕНТЛИГИ	6	
65	ТЕЛЕВИДЕНИЕ	84	+29%
35	РАДИО	32	-8%
395	ИНТЕРНЕТ НАШР	745	+88%
50+	Актив блогерлар сони	1200+	+2400%

va faoliyati samaradorligini oshirish belgilandi.

Prezidentimizning 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini ochiqchilik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, fuqarolarning axborotni erkin izlash va olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqchiligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash, ularning ochiqchilik borasidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash hamda faoliyatini ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimi joriy etildi.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan "Axborot kodeksini tasdiqlash haqida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasining yangi ustavi tayyorlanib, davlat ro'yxatidan o'tkazildi. O'zbekiston jurnalistlarining kasb etikasi kodeksi ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Oliy sud plenumining "Sud mahokamasi oshkorligini va sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini ta'minlash to'g'risida"gi qarori qabul qilingan.

Ushbu sa'y-harakatlar orqali mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xodimlarining haq-huquqlarini himoya qilish borasidagi huquqiy asoslar takomillashdi, mustahkamlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyundagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi sohaga qaratilayotgan alohida e'tiborning yana bir namunasi bo'ldi. Ushbu hujjatda:

— bolalar uchun mo'ljallangan eng yaxshi tele va radioloyiha, "Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan eng yaxshi material" tanlovlari tashkil etish;

— ommaviy axborot vositalari xodimlarining xorijiy tillarni o'rganish hamda xorijiy tillar bo'yicha tegishli milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lish uchun imtihon topshirish xarajatlarini qoplash;

— jismoniy shaxslar tomonidan davriy bosma nashrlar, kitob va boshqa matbaa mahsulotlariga elektron tarzda obuna bo'lish hamda davriy bosma nashrlar uchun obuna xarajatlarining bir qismini qaytarib berish;

— davlat organlari va tashkilotlari muassisligida bo'lmagan davriy bosma nashrlarning zamonaviy elektron shakllarini yaratish, ularni modernizatsiya qilish va bir yil davomida yuritish xarajatlarini qoplash bo'yicha tartiblar belgilandi.

Milliy jurnalistika rivoji yo'lida

O'tgan yillar davomida milliy mediamiz rivoji yo'lida amalga oshirilgan ishlar doirasida Oliy Majlis huzurida Axborot sohasini ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashi tuzildi. 2021-yil Oliy Majlis Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqchilikni ta'minlash masalalari qo'mitasi ish boshladi.

qalam" milliy mukofoti uchun xalqaro tanlov bosh milliy mukofoti sohibiga yengil avtomobil taqdim etish yo'lga qo'yilib, g'oliblarga beriladigan mukofot puli miqdori sezilarli darajada oshirildi. Tanlovning rag'batlantiruvchi nominatsiyalari ko'paytirilib, 12 taga yetkazildi.

Tele va radiokanallarning badiiy kengashlari faoliyatiga jalb qilingan malakali ekspertlarni O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasiga davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan doimiy ravishda rag'batlantirib borish yo'lga qo'yildi.

Ommaviy axborot vositalari va uyushmaning hududiy bo'limlari huzurida 44 ta mahorat maktabi, 41 ta "Yosh jurnalistlar" to'garaklari tashkil etildi. Bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda.

Ayni kunda uyushma huzurida ustoz jurnalistlar, OAV mas'ullari, mediasoha uchun

da O'zbekiston Milliy axborot agentligi faoliyatini qayta tashkil qilish, uni yirik mediatuzilmaga aylantirish bo'yicha ishlar davom etayotgani quvonarli. Agentlikka boshqaruv huquqi asosida berilgan "Matbuot uyi" bino va inshootlar hamda ularga tutash hududda yaqin vaqt ichida zamonaviy mediasoharacha tashkil etilishi barchamizni xursand qilmoqda.


Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Soyluq qishlog'ida joylashgan "Oqtosh" ijod uyini rekonstruksiya qilish hamda unga qo'shimcha bino va inshootlar qurish choralarini ko'rilayotgani ham OAV xodimlari salomatligini mustahkamlash va tiklash, ularning maroqli dam olishini ta'minlash maqsadini ko'zlaydi.

Shu o'rinda Mirziyoyevning Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimidagi nutqida



Ижтимоий тармоқ фойдаланувчилари:

- "FACEBOOK" - 7 604 100
- "Instagram" - 7 117 100
- "Twitter" - 148 700
- "Vk" - 1 437 633
- "Ok" - 18 000 000
- "LinkedIn" - 528 400
- "Telegram" - 30 639 544



kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilaridan tashkil topgan ishchi guruhlari tomonidan "O'zbekiston jurnalistlari" va "O'zbek jurnalistikasi antropologiyasi" kitoblarini nashrga tayyorlash boshlangan.

Nodavlat mediatashkilotlar bilan hamkorlikda jurnalistlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz hududlarida faoliyat yuritayotgan jurnalistlar uchun jahon standartlari hamda bugungi kun o'quvchilarining didi va talabiga mos keluvchi sifatlari kontent yaratishga yo'naltirilgan o'quv seminarlari tashkil etilmoqda. Shuningdek, turli davlat tashkilotlari, vazirliklar, idoralar hamda yirik ishlab chiqarish korxonalari, banklar va qator muhim sohalarda tarkibidagi axborot xizmatlari rahbarlari uchun maxsus mediatreninglar o'tkazilmoqda. Mazkur jara-yonlarda UNESCO, YXHT, BMT Taraqqiyot dasturi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi bilan "Madad" nodavlat notjorat tashkiloti

ommaviy axborot vositalari vakillariga, jurnalist va blogerlarga samimiy minnatdorlik izhor etgani. "So'z va matbuot erkinligi, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo'lgan huquqlarini kafollataymiz", deya alohida ta'kidlagani keng jurnalistlar va blogerlar jamoatchiligini ruhlantirdi.

Mavjud muammolar

Hozirgi kunda yangilanayotgan O'zbekistonimizdagi mahalliy, xususiy va xorijiy ta'lim dargohlarida 4 mingdan ziyod yig'it-qiz mediasoha yo'nalishlari bo'yicha tahsil olmoqda. Bu yaxshi ko'rsatkich. Ammo tahsil har hamma bitiruvchilar ham o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylasha olmaganini ko'rsatmoqda. O'qish davomida ularning barchasi yetarli darajada bilim va malakaga, tajribaga ega bo'lmoqda, deb bo'lmaydi. Shu bois, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklaridan mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratish so'raladi.

Shu o'rinda, jurnalist va blogerlarni qo'llab-quvvatlash, huquqiy savodxonligini oshirish borasidagi ishlarini davom ettirish, blogerlik faoliyati bo'yicha jahon tajribasini, ularning daromadini soliqqa tortish masalasi ham o'rganish lozim, deb hisoblaymiz.

Ta'kidlash joiz, uyushma faoliyati, uning xodimlari o'ylik maoshi, uyushmaning saqlash xarajatlari "Ilhom" jamoat fondi tomonidan moliyalashtiriladi. Afsuski, bu borada yuzaga kelgan jiddiy muammolar yechim topmayapti.

Ushbu ko'tarilgan masalalar ijobiy hal etilishiga umid qilib qolamiz.

Soha rivojiga doir yangi rejalar

Birinchi, O'zbekistonda jurnalistika sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari faoliyatini tahlil qilish, sohada yuzaga kelgan muammolarni o'rganish, ularga yechim topish borasidagi ishlarni

jonlantirish zarur. O'rganish natijalaridan kelib chiqqan holda, mediatuzilmalar va ularda faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Uchinchi, milliy va xalqaro jurnalistikaning eng yuksak yutuq hamda ilg'or tajribalarini keng ommalashtirish, jurnalist va blogerlarga ijodiy faoliyatga yangicha yondashuvlarni takomillashtirish va boyitish, tajriba almashishga qaratilgan respublika va xalqaro mediaforumlar o'tkazish.

To'rtinchidan, uyushma faoliyatini yanada jonlantirish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish, uyushma a'zolari va OAV vakillarini ijtimoiy himoya qilish, tegishli imtiyozlar yaratish, rag'batlantirish, bir so'z bilan aytganda, har jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi reja va dasturlar ishlab chiqish.

Beshinchidan, Prezidentning "O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasini tayyorlash.

Oltinchidan, uyushma tomonidan 2024-yilning birinchi yarim yiliga Tashkent shahrida Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy mediatuzilmalari hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazish.

Yetinchidan, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi bilan Xalqaro jurnalistlar federatsiyasi, Osiyo jurnalistlar uyushmasi o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, Hindiston, Turkiya, Ozarbayjon kabi davlatlar jurnalistlar uyushmalari bilan hamkorlik memorandumlari imzolash.

Sakkizinchi, 2023-2024-yillarda uyushmaning 60 nafarga yaqin a'zosi xorijiy davlatlar OAVda malaka oshirishi va stajirovka o'tashini, nufuzli mediatadbirlarda ishtirok etishini ta'minlash.

To'qqizinchi, mamlakatimizda internetdan (ijtimoiy tarmoqlardan) faol foydalanuvchilar soni kundan-kunga oshib borayotganini hisobga olgan holda, har bir markaziy va hududiy OAV internet (ijtimoiy tarmoqlar) sahifalariga (milliy ma'naviyatni yuksaltirishga oid) o'z materiallarini (keng omma o'qishiga moslagan holda) joylashtirib borishni ko'paytirish uchun alohida dasturlar ishlab chiqilishi bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

O'ninchi, kelgusida ustoz va tajribali jurnalistlarimiz tomonidan mahorat bilan yozilgan (gazeta va jumalalarimizda kama-yib borayotgan ocherk, felyeton, jurnalistik surishtiruv, esse kabi), publitsistik janrlarda tayyorlangan eng sara materiallarni (to'plam-kitob holda) nashr etish.

O'n birinchidan, uyushma tomonidan O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari qabul qilingan kunlar munosabati bilan tanlovlar o'tkazish, katta bayram tadbirlarida o'qitilgan sovg'alarni tantanali ravishda topshirish.

O'n ikkinchi, ommaviy axborot vositalari xodimlarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish, ehtiyojmand va bemor, faxrli jurnalistlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarni jonlantirish.

O'n uchinchidan, uyushma tomonidan o'tkazilayotgan "Yilning eng faol jurnalisti" va "Atirgul" tanlovlari "Chet ellik jurnalistning O'zbekiston haqidagi eng yaxshi material" nominatsiyasini joriy etish.

O'n to'rtinchidan, uyushma huzuridagi O'zbekiston Milliy matbuot markazida zamonaviy mediatuzilmalarni ko'rsatish va rivojlantirish, uyushma markaziy apparati va hududiy bo'limlarining xalqaro grant loyihalari faol ishtirok etishi orqali qo'shimcha mablag' topish, kelgusida uyushma o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash choralarini izlash borasidagi ishlarni jonlantirish.

O'n beshinchidan, mamlakatimiz OAVda faoliyat yuritayotgan jurnalistlarni davlat tili haqidagi qonun va qonunosti hujjatlar bilan tanishtirib borish va ularning mazmun-mohiyati xususida fikr almashuvini tashkil etish maqsadida uyushma huzurida "Tilimiz fidoyilari" klubini tashkil etish. Klub tomonidan markaziy va hududiy OAVda — gazeta va jumalarda, teleradiokanallarda, internet nashrlarda davlat tili qoidalarga rioya etilishi taliliga bag'ishlangan davra subhbatlari — turli tadbirlar uyushtirish, jurnalistlar tomonidan tayyorlanib e'lon qilinayotgan materiallarni o'rganish, tahlil qilish, bu borada jurnalistlarga ijodiy-uslubiy yordam berish.

O'n oltinchidan, ommaviy axborot vositalarida, jumladan, davlat va nodavlat teleradiokanallarda faoliyat yuritayotgan xodimlarning o'ylik maoshi (ish haqi)

TARAQQIYOT MEZONLARI

QULAY BIZNES MUHITI VA JOZIBADOR IMTIYOZLAR

tadbirkorlar safini kengaytirishda muhim omil



Ulug'bek XOLBEKOV,
Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik
oliy maktabi magistranti

Boshlanishi 1-betda

Xo'sh, yurtdoshlarimizni tadbirkorlikka, ta'bir joiz bo'lsa, biznesga qo'l urishga undayotgan kuch nimada? Jamiyatimizda ishlabarmonlik muhitining ortib, odamlar orasida bu yo'nalishga ishtiyoq kuchayib borayotgani qanday omillarga bog'liq? Albatta, tadbirkorlik qulay muhit bo'lgan joydagina rivojlanadi. Yangi O'zbekistonda ana shu muhitning shakllanish bosqichlari qanday kechganiga nazar tashlasak, vaziyat yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Isloh qilish oson bo'lmadi

Avvalo, tadbirkorlik sohasidagi tekshiruvlarga to'xtalsak. Buning azobiyu ortiqcha ovoragarchiliklari yillar davomida boshidan o'tkazgan odamlar yaxshi biladi. Huda-behuda tekshiruvlar va ularning akariyat hollardagi salbiy oqibatlari sabab O'zbekistonda odamlar tadbirkorlik qilishga hayiqib qolgan, oyoqqa solinadigan bu tushov tufayli ko'p ishlabarmonlar bankrotlikka uchragan va boshqalar haqida gapirmoqchi emasmiz. Shunchaki, yillar davomida saqlanib kelgan bu tizimni isloh qilish oson bo'lmadi, ammo tashlangan qadam qat'iy edi.

Jumladan, 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari, xususan, jinoyat ishleri doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinganini eslash mumkin. Tadbirkorlar faoliyatidagi tekshiruvlar o'tkazishga moratoriy joriy etilganini biznes vakillarining ko'nglidagi ish bo'lgani rost.

Ishlohtar shu bilan to'xtab qolmadi, aksincha, bu katta yo'lning boshlanishi edi. Chunonchi, 2018-yil 1-sentabrdan

boshlab tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan rejali va nazorat tartibidagi tekshiruvlar bekor qilinib, ularning faoliyatida qonun buzilishi haqidagi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda "xavfni tahlil etish" tizimi asosida tekshiruvlarni o'tkazish tartibi belgilandi. Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining 16 ta nazorat funksiyasi bekor qilindi.

Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari ham tubdan takomillashtirildi. Davlat xizmatlari ko'rsatishning umumiy muddati 787 kundan 471 kungacha qisqartirilib, tadbirkorlik sohasida litsenziya va ruxsat berishga oid 132 ta tartib-taomil bekor qilindi. Davlat idoralari tomonidan fuqaro va tadbirkorlardan jami 73 ta hujjat hamda ma'lumotnomani talab qilish amaliyotidan ham voz kechildi.

2017-yilda har bir tuman (shahar)da davlat xizmatlari markazlarining tashkil etilishi ham ana shu islohtlarning ilk ko'rinishlaridan. Bugungi kunda 750 dan ortiq davlat xizmatlaridan 172 tasi markazlar, 308 tasi O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda "Litsenziya" axborot tizimi orqali interaktiv shaklda ko'rsatilmoqda. Hozirga qadar 207 ta markaz hamda ularning 141 ta filiali orqali jismoniy va yuridik shaxslarga 32 milliondan ortiq xizmat ko'rsatildi. Bu borada doimiy o'zgarishlar, yangilanishlar olib borilyapti. Xususan, 17 ta davlat xizmatini kompozit tarzda ko'rsatish yo'lga qo'yildi, 200 dan ortiq tartib-taomil qaytarib chiqilib, soddalashtirildi.

Yana bir yangilik: litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, amaliyotda uchrab kelayotgan kundalik muammolar va korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Hujjatning asosiy qoidalariga ko'ra, 50 ta litsenziya, 124 ta ruxsat berish hujjatlari hamda 34 ta xabarnomaning yakuniy ro'yxati tasdiqlangan. Shu sababli, mazkur qonunda nazarda tutilgan yangi tartib-taomil turlarini joriy etish bekor qilindi. Ilk bor vakolatli organi xabardor etish orqali faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq mutlaqo yangi mexanizm joriy etildi.

Qiyin vaqtda kerakli ko'mak

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tashkil etilgan ham ayni muddao bo'ldi. Bu xorijda muqobil bo'lmagan "Mahallabay ishlash" tizimining bir qismi deyish mumkin. Ya'ni aholining tadbirkorlik bo'yicha tashabbuslari mahallaning o'zida shakllantirilib, mana shu jamg'armaning moddiy ko'magida amalga

oshiriladi. Bugungi kunda jamg'arman tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan, umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 barobaridan oshmagan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun 3 yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etilmoqda. Qolaversa, bunday kreditlarga kafillik berilyapti.

Sir emas, koronavirus pandemiyasi manaman degan davlatlar iqtisodiyotini ham tang ahvolga solib qo'ydi va bundan O'zbekiston ham chetda qolmadi. Ammo pandemiyaga qaramay, mamlakatimizda



tadbirkorlik subyektlariga shunday imkoniyatlar yaratib berildi, bundan foydalangan ishlabarmon ham, xalqimiz ham, davlat ham yuqtazmadi. Barcha sohalar, xususan, turizm, transport, farmatsevtika va to'qimachilik sanoati kabi tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, turistik (mehmonxonalar) yig'imini hisoblash va to'lash, tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga jaramalar qo'llash to'xtatildi. Tijorat banklari tomonidan moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan tadbirkorlarning kreditlari bo'yicha to'lovlarga kechiktirish taqdim etilib, muddati o'tib ketgan kreditlarga garov ta'minoti bo'yicha jarima sanksiyalari va undiruv choralarini qo'llanilmadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari, umumiy ovqatlanish korxonalarini, yo'lovchi tashish, maishiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar mol-mulk va yer solig'ini to'lashdan ozod qilindi. Mikro-firma va kichik korxonalarida ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 1 foizgacha kamay-



tirilib, turoperatorlar, turagentlar, shuningdek, joylashtirish vositalari uchun foyda solig'i stavkasi 50 foizga kamaytirildi. Pandemiya avj olgan murakkab davrda, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ko'ndalang qo'yilgan ham ma'lum. Davlatlar o'rtasida aloqalar to'xtab qolishi, iqtisodiy zararlar oqibatida jahon qishloq xo'jaligi sohasi sezilarli zarar ko'rdi. Shu yo'nalishdagi tadbirkorlarga ham oson bo'lmadi. Ana shunday murakkab vaziyatda ham mamlakatimizda inson qadri yetakchi o'ringa chiqib, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash davom ettirildi. Oziq-ovqat va dorivor o'simliklar yo'nalishlarini rivojlantirish uchun doimiy ravishda qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar berib borilgan ushbu sohalarini inqirozdan saqlab qolish barobarida, yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi.

Jumladan, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, uzumchilik, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va kasanachilikni rivojlantirishning subsidiyalash tartibi joriy etildi. Dorivor o'simliklar ishlab chiqaruvchilarga foyda, mol-mulk, yer solig'i uchun soliq stavkasi 50 foiz miqdorida

imtiyoz va preferensiyalar berib borilgan ushbu sohalarini inqirozdan saqlab qolish barobarida, yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi.

Jumladan, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, uzumchilik, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va kasanachilikni rivojlantirishning subsidiyalash tartibi joriy etildi. Dorivor o'simliklar ishlab chiqaruvchilarga foyda, mol-mulk, yer solig'i uchun soliq stavkasi 50 foiz miqdorida

qo'llanilishi belgilandi. Natijada fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini bilan bog'liq jami 565 milliard so'mlik qarzi hisobdan chiqarilib, 19 ming 435 nafar shaxsning tadbirkorlik faoliyatini tiklandi. Murakkab davrlarda tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirilib, ularga 86 trillion so'm kredit, 33 trillion so'mlik imtiyoz va boshqa turdagi ko'maklar ko'rsatildi. Mazkur choralar natijasida pandemiyadan zarar ko'rgan 100 mingdan ziyod korxonalar o'z faoliyatini tiklab oldi.

Shuningdek, tadbirkorlarni yer maydoni bilan ta'minlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilyapti. Tan olib aytish kerak, bu muammo uzoq yillardan buyon ularning tinkasini quritgan boshqo'riqlardan biri edi. Uning yechimi sifatida 2018-yildan boshlab tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalaridan foydalanish huquqini elektron auksion orqali sotib olish tartibi joriy qilindi, mahalliy davlat hokimiyati organlarida faqat ma'lum holatlarda to'g'ridan-to'g'ri yer ajratish vakolati qoldirilgan.

2022-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlari o'ziga ajratilgan yer uchastkalarini xususiy lashtirish huquqiga ega bo'ldi. Ularda endilikda yer uchastkalariga nisbatan mulk huquqini elektron auksion orqali sotib olish imkoniyati ham bor. Bularning barchasi sohada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bilan birga, erkin va sog'lom raqobat muhiti yaratib bermoqda.

Imtiyozlar barcha uchun

Ana endi natijalar haqida to'xtalsak. O'ng'i, tadbirkorlarga oxirgi yillarda berilayotgan imtiyozlar mamlakatimiz tarixida kuzatilgan. Oddiy insonlarning tadbirkorlik orqali o'zini o'zi band qilishi ham avvallari xayolga sig'maydigan masala edi. Jamiyatimizda faqat puli yoki kattaroq

lavozimda ishlaydigan tanishi bor insongina tadbirkor bo'la oladi, degan qarashlar shakllangan ham rost.

Buni yana taqqoslar bilan davom ettirish niyatimiz yo'q. Ayni paytdagi holatni ko'rish uchun atrofqa qarashning o'zi yetarli. Oddiy dehqondan tortib, hali endigina katta hayotga qadam qo'ygan yigit-qizlar ham tadbirkorlik bilan shug'ullanib, yaxshi daromad topayotganiyu boshqalarni ham ish bilan ta'minlayotgani hayotimizda oddiy holga aylanib ulgurdi.

Bu boradagi islohtlar natijasi yildan-yilga o'sib boryapti. Masalan, o'tgan yilning o'zida 90 mingta yuridik va 96 mingta yakkala tartibdagi tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Hududlardagi 54,9 mingdan ziyod xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlarga tijorat banklari tomonidan 41,9 trillion so'm kredit ajratildi. Pirovardida, xususi sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 80 foizga, eksportdagi ulushi esa 60 foizga yetdi.

Tadbirkorlik subyektlari orasida yoshlar ulushining ortib borayotgani ham quvonarli. Mamlakatimiz aholisining 18 milliondan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Bu katta kuch va imkoniyat degani. Shu bois, bugun yurtimizda yigit-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish, ularga bu borada zarur ko'mak va imtiyozlar berish yo'nalishidagi ishlar ham avvalgilarga o'xshamaydi. Buni yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali bandligini ta'minlash maqsadida 121 ming 731 talabgorga 2 trillion 894 milliard so'm kredit ajratilganidan ham ko'rish mumkin.

Qolaversa, tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan 103 mingdan ziyod xotin-qiz tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilib, ular tomonidan qariyb 201 mingta yangi ish o'rni yaratildi. 233 mingdan ziyod ayolga oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 4,7 trillion so'm imtiyozli kredit ajratildi.

Umuman, bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohtlar, hamma harakatlardan ko'zlangan bosh maqsad — odamlarni rozi qilish, munosib sharoit yaratib berishga qaratilgan. Tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishidagi sa'y-harakatlar ham inson qadri ulug'lash, mamlakatda ishlabarmonlik hamda investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qilishi muqarrar.

2021-yil avgust oyida davlatimiz rahbari tadbirkorlik bilan ilk ochiq muloqotida ham ana shu jihatlarga urg'u bergani yodimizda. Shundan so'ng mazkur muloqotni har yili o'tkazish an'ana aylangan va 20-avgust yurtimizda Tadbirkorlar kuni sifatida nishonlanayotgani ham soha vakillari doimo qo'llab-quvvatlanayotganining yorqin ifodasidir. Ishlabarmon doira vakillari ham shunga mos tarzda harakat qilmoqda, iqtisodiyotimizning haqiqiy tayanchiga aylanishga intilmoqda.

INSON QADRI UCHUN

BUGUNIDAN ROZI ODAMLAR

Obod manzillar sari

Manzili sari oshiqqan piyoda yoki haydovchilarga qulaylik yaratish maqsadida yurtimizda yo'llar, ko'priklar bunyod etilyapti. Ayniqsa, ichki yo'llar sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilyapti.

Xo'sh, bugun olis qishloqlarda yo'lsizlik borasida ahvol qanday, o'zgarishlar qay darajada? Qishda loy, yozda chang, o'nqir-cho'nqir, qarovsiz yo'llar ravon bo'layaptimi?

O'zimizni qiziqitgan ushbu savollarga Buxoro viloyatining Vobkent tumani misolida javob topishga harakat qilindi.

Vobkentda ishlar qizg'in

Tumanimiz mahallalari, ayniqsa, olis qishloqlar qiyofasini tubdan o'zgartirish, infratuzilmasini yaxshilash, u yerda yashovchi aholiga qulaylik yaratish ishleri avjda, — deydi Vobkent tumani hokimi Farhod Umarov. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, joriy yilda Vobkent tumani mahalla va qishloqlarning ichki yo'llari ta'miri borasidagi loyihalar uchun jami 59,8 milliard so'm ajratilgan. 2022-yil va 2023-yilning iyun oyi yakuniga qadar



tumanimizda mavjud 747 kilometr ichki yo'lning qariyb 107 kilometri ta'mirlandi.

Tumanimizdagi ko'chalar va qishloq yo'llarini ta'mirlash ishleri yozning jazarima kunlarida ham bir nafas bo'lsa-da, to'xtagan yo'q. Xususan, Cho'rikalont mahallasidagi Vag'onziyak, Kumushkent mahallasidagi Halvogaron, Baqalon ko'chalari, "Ko'lxatib" mahalla fuqarolar yig'indidagi Sarkor, Mukayim, Ehsan, Gulrabad hamda Xayruxsh mahallasining Navbahor hududlarida ish qizg'in. Hozir bu qishloqlardagi jami 28 kilometrdan ortiq ichki yo'llarda

ta'mirlash ishleri ketyapti. Ayni kunlarda tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi, Buxoro yo'llardan muntazam foydalanish unitar korxonasi, "Gazli yo'l qurish-ta'mirlash" MCHJ ishchi-xizmatchilarining qo'lli-qo'lga tegayotgani yo'q. Aholi talab va istaklari asosida Ko'lxatib mahallasidan Changaron mahallasiga eltuvchi va Kosari mahallasini hududidan o'tuvchi umumfoydalanuvchi yo'lining 5,7 kilometri asfaltlandi. Ko'p yillardan buyon yaroqsiz va ta'mirlanib bo'lib yotgan bu ko'chalar nihoyat ko'rkam qiyofaga kirmoqda. Ja-

rayonda o'ndan ortiq maxsus texnika va transport vositasi kuchidan foydalanilyapti. Shuningdek, Shakarkent mahallasidagi 7,5 kilometr yo'lni asfaltlashga kirishilgan. Albatta, hudud infratuzilmasini yaxshilash bilan birga, bu yo'l aholiga qulaylik yaratishini inobatga olib, ko'chani tartibga solish, yo'l belgilari o'rnatish, tunda yoritish choralarini ko'rish ishlariga ham e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda tumanimizdagi barcha yo'llarning ravon, tekis va qulayligini ta'minlashga harakat qilyapmiz.

Bu ishlardan, ayniqsa, qishloqlar aholisi juda mamnun. Tuman hokimligi sa'y-harakati bilan aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgan yana 27 kilometr yo'lni asfaltlashga jadal kirishilgan. Hozir ushbu manzillarda o'ndan ortiq ishchi-mutaxassis, maxsus texnika va mexanizm kuchidan unumli foydalangan holda ish olib borilyapti.

"Yo'llarimiz ta'mirlanishiga umid ham qilmay qo'ygandim"

To'g'risini aytadigan bo'lsam, qachon-dir qishloqimizning o'ydim-chuqur, qishda loy, yozda chang yo'llari soz bo'lishiga umid ham qilmay qo'ygandim. Nega desangiz, hayotimning 40 yildan ko'prog'i yo'llarda o'tdi, — deydi Qipchoq qishloqida yashov-

chi 70 yoshli otaxon Fayzullo Jo'rayev. — Kasbim haydovchi. Qishloqdan tumanga qatnab ishlardim. Yo'l nosozligi tufayli ko'p vaqt yo'qotardik, manzilga ham, ishga ham kechikardik. Loy yo'llarda soatlab qolib ketgan vaqtlarim bo'lgan. Mana, deyarli bir haftada yo'llarimiz tekislandi. Ish esa kun-tun tingani yo'q.

Bulturgidan salmoqli

So'nggi yillarda yo'l infratuzilmasini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jamoamiz tomonidan bugungi kunga qadar tumanimizdagi 935 kilometrdan ziyod yo'lga xizmat ko'rsatilib, uning 17 kilometri respublika, 918 kilometri mahalliy ahamiyatdagi ichki yo'llardir, — deydi tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi rahbari Ne'mat Qurbonov. — O'tgan yili "Obod qishloq" davlat dasturi asosida 5,5 milliard so'm evaziga 9,4 kilometr yo'l asfaltlandi, 2,5 kilometr ichki yo'lga shag'al yotqizildi. Tuman markazi ko'chalarini obod qilish va ko'rkam qiyofaga keltirish maqsadida 2022-yili piyodalarda hamda velosiped yo'laklari qurishga 3,8 milliard so'm sarflandi. Bu yil yo'l ta'miri ishleri hajmi bulturgidan salmoqliroq. Belgilangan vazifalar, dasturga kiritilgan rejalarini o'z vaqtida va puxta bajarishga bel bog'lagan tuman yo'llardan foydalanish

unitar korxonasi xodimlari ham ayni damda xalq xizmatida. Hozir yo'lsolar tumani-mizning Kumushkent mahallasidagi 6,11 kilometr yo'lning 1,5 kilometrda ta'mirlash ishlarini bajarimoqda.

Aholi uzog'i yaqin bo'ladi

Yo'llar aholi turmush farovonligi, yurt taraqqiyotini belgilovchi mezonlardan biri. Qayerda yo'l qurish, ta'mirlash ishleri keng quloq yozsa, o'sha joyda zamonaviy infratuzilma obyektleri qad rostlab, aholi hayot tarzi yuksalib boraveradi.

Bugun 143 ming kishi yashayotgan Vobkent tumani aholining kayfiyati yuqori. Tuman mahallalarini, ayniqsa, chekka qishloqlar qiyofasini tubdan o'zgartirish, infratuzilmasini yaxshilash, u yerda yashovchi aholiga qulaylik yaratish borasidagi amaliy sa'y-harakatlar ayni vaqtda qizg'in pallaga kirgan. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi "Avtomobil yo'llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yo'lsizlik sohasidagi muammolarni samarali hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ha, bugun odamlar o'tayotgan kundan rozi, tillaridan shukronalik tushmaydi. Zero, zamon talablariga javob beruvchi tekis yo'llar, avvalo, aholining uzog'ini yaqin qilish, vaqti va mablag'ini tejash, harakat xavfsizligini ta'minlashga, inson qadriini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Gulichehra DURDIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

MAKTABGACHA TA'LIMNING YANGI SHAKLI

BOLALARNI O'QISHGA TIZIMLI TAYYORLAYDI

YUKSALISH PALLASI

Noroy SOATOVA, Maktabgacha ta'lim agentligi bosh mutaxassisi

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetimish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Bu davrda bola dunyoni anglaydi, ona tilini o'zlashtiradi, otanasini, oilasi, mahallasi, Vatanga mehri uyg'onadi. Umri davomida oladigan bilimlariga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim tashkilotining hisssasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu

bois, mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, poydevoriga aylangan.

To'plangan xalqaro tajribalarga ko'ra, sifatli maktabgacha ta'limga sarmoya kiritish bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ijtimoiy moslashuvi, zaruriy bilim va ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

O'tgan yili noyabrda Toshkentda o'tkazilgan UNESCOning kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha II butunjahon konferensiyasida Toshkent deklaratsiyasi qabul qilingandi. Unda kichik yoshdagi bolalarni erta rivojlantirishda UNESCOga a'zo mamlakatlarning maslahatlashuvi hamda o'zaro hamkorligi davom etishi belgilangan. Shuningdek, "Ta'lim kutub turmaydi" shiori ostida kichik bolalarga ta'lim-tarbiya berishni qo'llab-quvvatlash uchun kelgusida xalqaro ko'makni safarbar qilish va kuchaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

"Ilk rivojlanish markazlari" Samarqand va Namangan viloyatlarida uch model asosida faoliyat ko'rsatmoqda. Birinchi model bo'yicha 3-6 yoshli bolalari bo'lgan, maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan, shuningdek, chekka qishloq joylarda yashovchi va maktabgacha ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmagan oilalarga boriladi. U yerda bolalar bilan ishlash oilalarda, ota-onalarning faol ishtirokida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq tashkil etiladi.

Ikkinchi model o'yin guruhlari asosida ishlaydi. Bu guruhlari 3-7 yoshli bolalar uchun "Ilk rivojlanish markazi"da ochildi. Ta'lim-tarbiya jarayoni "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi, ota-onalar ixtiyoriy ravishda ishtirok etsa bo'ladi. O'yin guruhlari muayyan yosh yoki turli yoshdagi bolalardan tashkil topadi. Ushbu guruhdagi bolalar 15 nafardan 20 nafargacha bo'lishi mumkin.



Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida 2019-2023-yillarga mo'ljallangan ta'lim sohasini rivojlantirish rejasiga muvofiq, Jahon banki bilan hamkorlikda yurtimizning olib tushirilgan va chekka hududlarida maktabgacha ta'limning yangi — muqobil shakllari amaliyotga tatbiq etildi. Jumladan, Namangan viloyati Kosonsoy pedagogika kolleji va Samarqand viloyati Tayloq pedagogika kolleji "Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish" loyihasi amalga oshirilmog'ida. Uning doirasida tajriba-sinov tariqasida har biri 20 ta rivojlantiruvchi o'yin guruhini o'z ichiga olgan "Ilk rivojlanish markazlari" faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bolaning yoshi va individual imkoniyati, qobiliyati va ehtiyojiga mos ravishda keyingi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi, alohida ehtiyojli bolalarga individual ta'lim dasturlari, shuningdek, zamonaviy inklyuziv maktabgacha ta'lim-tarbiya olish imkonini beruvchi qulay muhit yaratish kunning muhim vazifasidir. Loyihadana ko'zda tutilgan asosiy maqsad ham shu. Bu o'z o'rnida bolalarda Vatanga muhabbat, oilasiga, xalqning milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga, atrof-muhitga hurmat tuyg'usini shakllantirish, boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayonida bolaga va ota-onalarga har tomonlama yordam berish hamda maktabgacha ta'limga qamrab olinmaganlar uchun teng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.

Loyiha doirasida Samarqand va Namangan viloyatlarida imkoniyat cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'limni uyda berish modelini tajriba sifatida joriy qilish maqsadida alohida ta'lim ehtiyojli bo'lgan bolalar uchun pedagoglar tanlab olinib, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha seminar o'tkazildi.

Uchinchi model bo'yicha sog'lig'i tufayli imkoniyati cheklangan 2-6 yoshli bolalari bo'lgan oilalarga boriladi. Alohida ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda ota-onalarga zarur psixologik-pedagogik yordam ko'rsatiladi. Unga defektolog, psixolog, tarbiyachilar boradi. Ushbu loyiha doirasida bugun Samarqand viloyatida 794 ta, Namangan viloyatida 939 ta oila qamrab olingan.

O'tgan davrda birinchi model bo'yicha Samarqand viloyatida 276 ta, Namangan viloyatida 536 ta oila qamrab olingan. Ikkinchi model bo'yicha Samarqand viloyatida tashkil etilgan 11 ta o'yin guruhiga 277 nafar o'g'il-qiz jalb etilgan. Namangan viloyatida esa 14 ta o'yin guruhida ayni paytda 353 nafar bola ta'lim-tarbiya olmoqda.

Uchinchi model bo'yicha Samarqand viloyatida 60 ta oilaning qariyb 800 nafar, Namangan viloyatida 53 ta oilaning 980 nafardan ziyod farzandi qamrab olindi. Guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayoni "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida bir kunda 2 smena (navbat) bilan 3-3,5 soat vaqt oralig'ida olib boriladi. Mazkur guruhlarda faoliyat ko'rsatadigan pedagog-tarbiyachilar loyiha doirasida tashkil etiladigan treninglarda xalqaro ekspertlar yordamida malaka oshiradi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevoridir. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga ishtiyoq uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlaydi. Shunday ekan, bu tizimni yanada kuchaytirish, na faqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, balki oilalarda ham har tomonlama qulay shart-sharoit yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.



Davr nafasi

Har yozganim

VATAN SARI BIR QADAM



"Bolaligimda dadam yangi yil arafasi Germaniyaga xizmat safariga borar, har gal bir chemodan shokolad olib kelardi. O'shanda Germaniyalikdek shokolad boshqa joyda bo'lmasa kerak deb o'ylardim. Shu bois, bola ko'nglimda bu davlat g'oyat shirin shokoladlar vatani sifatida taassurot qoldirgan. Keyinchalik uning eng rivojlangan davlatlardan biri ekanini bilgach, dadam bilan yanada g'ururlanganman. Taqdir taqozosi bilan Germaniyada yashayotganimizga ham 8 yil bo'ldi".

Har qanday inson uchun tug'ilgan zamindan yiroqda yashash, yot elda Vatanning bir parchasini yaratib olish oson emasligini "Xorijdagi vatandosh"ning bu galgi qahramoni, ayni paytda Berlindagi soliq maslahatchisi va auditori idorasi iqtisodchi-buxgalteri Sitora Usmonova chuqur his qiladi. Zero, u yevropacha va o'zbekona dunyoqarash o'rtasida yer bilan osmondacha farq bor, deydiqanlar sirasidan. Yosh bo'lsa-da, vatandoshlarining chet elda farzand tarbiyasidek mashaqqatini yengillashtirishga, o'zbek oilalarining o'ziga xosligini ko'rsatishga intilib yashayotgan qibraylik o'zbek qizi bilan suhbatimiz, asosan, milliylik, qadriyatlar doirasida kechdi.

"Biz o'zbekimiz, biz shundaymiz!"

Sitora Yevropada oila qurish o'qish, ishlash, karyera, sayohatdan keyingi o'rinda turishini Germaniyaga borgan kezarlaridanoq tushunib yetgan. Tug'ilishning keskin kamayib ketganini u bu yerda oila haqida juda kech o'ylanayotganidan deb biladi.

— Bizda esa aksincha. Oila muqaddas, farzand bebaho ne'mat, inson hayotining mazmuni hisoblanadi, — deydi u.

Germaniyada o'zbek ayoli sifatida yashash va qo'ni-qo'shnilar bilan muloqot qilish uning zimmasidagi katta bir mas'uliyat edi. Qolaversa, otasi unga hamisha "germaniyaliklarga O'zbekistonni, o'zbekligingni, tariximizni, milliy-urf odatlarimizni ko'rsatgin", deb uqtiradi. Shunga ko'ra, azaldan qadriyatlarimizga hurmat baland, har qanday ishini turmush o'rtog'idan bemaslahat qilmaydigan yosh o'zbek ayoli mahalliy aholi bilan qaysi davrda bo'lmasin, albatta, sharqonalikni saqlaydi.

— Ba'zan meni noto'g'ri ham tushunishgan. Ya'ni o'zbek ayollaridagi ibo-hayoni jur'atsizlik, mehmonlarga mulozamatni esa o'zini qadrlamaslik deya baholagan insonlar ham uchragan. Bunday vaziyatlarda turmush o'rtog'im meni doimo qo'llab-quvvatlab, ularga "biz o'zbekimiz, biz shundaymiz", deb tushuntirar edi. Bora-bora ishonmada, mahallada, do'stlar orasida ham mehmondo'st o'zbekistonliklari oilasi sifatida tanilidik, — deydi Sitora.

O'n yildan keyin nima bo'ladi? Xato qilmayapmizmi?"

— Oilada farzandlarimiz bilan o'zbek tilida so'zlashamiz, ularga o'zbekona tarbiya berishga harakat qilaymiz. To'g'ri, yaqinlar ko'magisiz oila, ish, o'qish hamda farzand tarbiyasi oson bo'lmaydi. Bu borada hanuz qiynalaman. Ayniqsa, imtihon kezlari juda og'ir kechardi. Barcha kursdoshlarim darsdan keyin kutubxonaga borsa, men farzandimni bog'chadan olishga shoshardim. Darstlarimni tayyorlashga kechasigina imkon bo'lardi.

Lekin shunda kasbiy ta'limni (Ausbildung) yaxshi baholarga tugatdim, iqtisodchi-buxgalter bo'lib ishlayapman. O'ziga yarasha mashaqqati bor, albatta. Germaniyada iqtisodchilarga aniq maqsadli, talabchan, rostg'o'y kishilar sifatida qarashadi. Faqat sonlar, statistika va qonunlar haqida o'ylash inson tabiatida anchagina jiddiyligni ham yuzaga keltiradi. Ayniqsa, audit idoralarda biror mijozda iqtisodiy muammo yuzaga

kelisa, o'ta jiddiy yondashadilar. Bunday kayfiyat atrofdagi hamkasblarga ham ta'sir qiladi.

Hisobotlarni kechiktirmay topshirish esa qat'iy talab. Shu bois, ba'zan tungacha ishlashga to'g'ri keladi. GFS (Iqtisod maktabi)dagi dotsentlarimizdan biri bizga "Siz iqtisod doktorisiz, tashxis ham, tahlil ham, yechim ham to'g'ri bo'lishi shart, buning uchun yangi bilimlar zarur", deya ko'p aytadi. Shu ma'noda, Germaniyada iqtisod kishisi tinmay o'sishga tayyor bo'lishi kerak. Aks holda, maoshi ham oshmaydi, pozitsiya ham o'zgarmaydi.

Turmush o'rtog'im esa IT sohasida. Germaniyada bu sohada 10 yildan zi-



yod tajriba orttirib, o'tgan yili o'zining Befico GmbH IT Consulting firmasini ochdi. Hozir Yevropa bank tizimidagi loyihalarda faol ishtirok etyapti. Umuman olganda, farovon hayot kechiryapmiz. Ammo ba'zida o'ylanib qolaman, hatto qo'rqib ketaman. O'zimga o'zim "Germaniyada qolib xato qilmayapmizmi? Nimaga farzandim men bilan o'zbek tilida muloqot qila olmayapti, 10 yildan keyin nima bo'ladi?" degan savollarni beraveraman. Nazarimda, bolalarimizni O'zbekistondan uzib qo'yayotgandekmiz. Vaholanki, Germaniyaga kelgan ilk kezlirimiz har qanday yurtda yashab, chiroyli hayot kechirish uchun o'sha davlat tilidagi muloqot muhimligini anglab yetganmiz. Biroq nima bo'lganda ham farzandlarimiz, avvalo, o'z ona tilida ravon so'zlashi, milliylikni anglashi kerak deb o'ylayman. To'g'ri, so'nggi yillarda Germaniyada o'zbekistonliklari soni ortgan sabab o'zaro mehmondorchilik, palov pishirish, o'zbekona bayram dasturxonlari ancha ommalashdi. Bu Germaniyada o'sayotgan o'zbek farzandlari orasida mehmonnavozlik, muruvvat, oqibat kabi tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilyapti. Lekin aksariyat o'zbek bolalari nemis tilida muloqot qiladi, ularga shunisi qulay. Bu holat xavotirini oshirib, masalaga qandaydir yechim topishga undayveradi.

Bolaning begonasi bo'lmaydi

— Bolaligimdan kitobga mehrim bo'lakcha. Har safar O'zbekistonga borganimda do'konlarni birma-bir aylanib, o'zbek bolalar adabiyoti bilan tanishaman. Turfa kitoblari olib kelaman. Farzandim bilan, asosan, o'zbek tilida mutolaa qilishga intilamiz. Uzundan-uzun matnlarni tushuna olmay bolamning diqqati oshardi. Ertakni oxiriga qadar eshitmas, chunki matnlar bolaning yoshiga nisbatan murakkab bo'lardi.

Bolalar adabiyotimiz ularning yoshiga ko'ra toifalarga ajratilmagan, ba'zi kitoblarning sifati ham talab darajasida emasligi shunday payt bilinib qoladi. Germaniya bog'chalarida esa bolalarga yoshi darajasidagi kitob o'qib beriladi, ota-onalar ham buni qo'llab-quvvatlaydi. Yangi kitoblari sovg'a qilib turamiz. Har bir bola o'z kitobini yasashi ham mumkin. Bolalar kitobni sevishni o'ta-onadan o'rgansa, uni o'qib-tushunishni bog'cha va maktabdan boshlaydi. Ularning televizor, telefon, umuman, elektron qurilmalardan foydalanishiga maktab yoshiga yetguncha deyarli ruxsat berilmaydi.

Xoh metroda yuring, xoh avtobusda, odamlar qo'lida kitob ko'rasiz. Hatto telefonda ham elektron kitoblarni o'qib ketishadi. O'zim ham yo'l-yo'lakay audiokitoblari eshitib ketishni odatga aylantirdim.

Iqtisodchi sifatida ayta olamanki, Germaniyada ko'plab nashriyotlar katta daromad topishi sir emas. Buni statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Chunki kitobga talab katta. Shaharlarning deyarli har bir dahasida katta-kichik kutubxonalar va bolalar kitob do'konlarining yangisidan tortib, "second hand" ("ikkinchi qo'l")jigacha uchratish mumkin. O'zbekistonda esa poligrafiya halli biznes darajasida yaxshi

boshqa yo'llarini qidira boshladi. Chop etilishini intiqib kutgani — "Quyoshli tong" nomli birinchi kitobchasini bolajonlarga o'z hisobidan bo'lsa-da, Yevropa standartida taqdim etishga qaror qildi.

Kitob bahona ko'p yillardan beri Germaniyada istiqomat qilib kelayotgan, "Humo Olmon" jamiyati hamda "Baxti oila" loyihasining tashkiliy ishlari vakillaridan biri, pedagog-psixolog Habiba opa Hamdamova bilan tanishib oldi. Opa Myunxen shahridagi yosh o'zbek oilalariga, yosh ijodkorlarga mo'ljallangan va bola tarbiyasi bo'yicha qator tadbirlarni tashkillashtiradi. Ko'plab o'zbek onalariga farzand tarbiyasida yordamini ayamay kelayotgan bu ayol "Quyoshli tong"ni Germaniyadagi o'zbek oilalariga tarqatishga ham katta hissa qo'shdi.

Qahramonimiz ikki yil davomida yozgan kitobida serquyosh O'zbekistonimizning betakror tongidan boshlanadigan urf-odatlarimiz — salomlashish odati, kattalarga hurmat, o'zaro mehr-oqibat, oiladagi hamjihatlik, qo'yinglik, o'zbekona fazilatlarini imkon qadar mujassam etdi. Kitobda choynak va piyolamiz ham alohida tasvirlandi. Zero, Sitoraning nazdida xalqimizning bir piyola choy ustidagi qadriyatida hikmat ko'p. Aniqrog'i, o'lmas qadriyatlarimizning bir uchi bir piyola choy ustidagi do'stlik rishtalariga borib taqaladigandek. Shu ma'noda, o'zbek bolalari choynak va piyolaga muhabbatli bo'lishi kerak. Chunonchi, Germaniyada mehmondostlik degan tushuncha yo'q.

— Ko'pchilik o'zbeklarimiz bundan xafa bo'ladi, — deydi Sitora. — Bu yerda bir-birimizdan uzoqlashib ketyapmiz. Hamma o'zi bilan o'zi, vatanimizdekidek oqibat yo'q, deb o'ksinashadi. Aslida, mehmondostlik, qarindosh-urug'larning bordi-keldisi kabi urf-odatlar qadriyatimiz — o'zbekonlik. Shu sabab uni saqlab qolish, tiklash, rivojlantirish har bir o'zbekistonlikning o'ziga bog'liq.

Vatandoshlarimiz yutuqlaridan kuch oliniz

Hozir ilk mualliflik asarining nemischa talqini ustida ishlayotgan Sitora shu yilning may oyida "Quyoshli tong"ni ikki tilda "Amazon" orqali dunyoviy nashrga chiqarishga musharraf bo'lgandi. Kitob AQSH, Janubiy Koreya, Italiyadagi o'zbek bolalarga ham ulashilmog'ida.

— Shu yil O'zbekistondan kelganimizdan so'ng Italiyadagi O'zbek madaniy markazi rahbari Komila Qirg'izova menga "Quyoshli tong"ni Italiyada ham tarjima qilib nashr etishni taklif qildi. Albatta, rozi bo'ldim. Agar kengash tasdiqlasa, kitobim Italiyada ham chop etiladi, — deydi Sitora. — Bolalarimizning yoshiga, qobiliyatiga mos bo'lgan yangi-yangi, milliy hamda zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotlari sonini ko'paytirishni reja qilganman. Zero, xayolan Vatandaman. Har bir yozganimda ona zaminimga bir qadam bo'lsa ham yaqinlikni his qilmoqdaman. Bu esa menga zavq beradi. Shunday payt O'zbekistonga borgan, aeroportda ko'z yoshlarimni tiyolmay, yaqinlarim bag'riga shoshilgan onlarim yodga tushadi. Biroq u yerda ham ekologik muammolar paydo bo'layotganidan xavotirlanaman. Havoning ifloslanib borayotganini, daraxtlar kamayib ketayotganini, ko'ngilochar, dam olish maskanlarida yig'ilib qolgan chiqindilarni ko'ngilni xira qiladi. Axir biz bunday xalq emasdik-ku...

Yana bir gapni albatta aytishni istardimki, gazetangizda xorijdagi vatandoshlarimiz haqida berib borilayotgan maqolalar shaxsan men uchun juda manfaatli bo'lmoqda. Chunki ular orqali chet eldagi o'zbek vatandoshlarimiz yutuqlaridan xabar topib quvonamiz, ruhlanamiz, kuch olamiz. Zero, o'zimiz ham ularning safidamiz. Barchamiz bir maqsad — kelajagimiz vorislarining porloq ertasi uchun olib yurtlarda yashab, ishlab yuribmiz. O'zbek bolalari ham sifatlari, zamonaviy o'zbek adabiyotlarini o'qishini chin didan istayman. Bolalar adabiyotini rivojlantirish borasida bir qancha loyihalarim bor. O'z vatanimizda ularni qo'llab-quvvatlovchilar bo'lsa, o'zbek bolalarga zamonaviy, sifatli va jahon standartidagi adabiyotlarni taqdim etishga tayyorman.

Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bir piyola choy ustida

Germaniya nashriyotlaridan najot bo'lmagach, Sitora kitob chiqarishning

TAHLIL

KONSTITUTSIYA, MILLIY MAFKURA VA MA'NAVIYAT:

QAT'IIY POZITSIYALAR ZARURATI



Sulstonmurod OLIM, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

So'nggi yillarda jamiyatimizda vaziyat o'zgarib, yangilanib ketdi. Albatta, milliy mafkura va ma'naviyat borasida noan'anaviy yondashuvlar kerak. Biroq mafkuraviy va ma'naviyat ma'rifiy sohada usul birlamchi emas. Targ'ibotda odamga fikriy ta'sir o'tkazishning har qanday, ya'ni cheksiz usul va uslublaridan foydalanaverish, milliy mafkura va ma'naviyat targ'ibotida an'anaviy usullarni ham, zamonaviy usullarni ham birday qo'llash kerak.

Boshlanishi 1-betda

Jamiyatni uch muhim tizim — qonun, mafkura va ma'naviyat boshqaradi. Qonunlarni davlat qabul qiladi. Milliy mafkura xalqni hisoblanadi. Ma'naviyat esa ko'p asrlik milliy va umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi. Biroq bu uch tizim bir-birini inkor etmasligi, bir-biriga zid g'oya yoki qat'iyatlarni o'rta qo'ymasligi, bir-birining faoliyatiga xalaqit bermasligi, aksincha, bir-birini qo'llab-quvvatlashi, to'ldirishi shart. Sodda aytganda, milliy mafkura g'oyalarga sadoqatli va ma'naviyati yuksak shaxsdan, so'zsiz-shubhasiz, davlat qonunlariga qat'iy amal qilib yashash ham talab etiladi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida tamoman yangi milliy mafkura va ma'naviyat tizimi shakllantirildi. Modomiki, xalqning orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, qiziqishlari ifodalab, ularni himoya qilishga qaratilgan g'oyalarni (yig'indisi, majmuasi) "milliy g'oya", buni hayotga bevosita tatbiq etish esa "milliy mafkura" bo'lsa, bu bizda bor, shakllangan, ishlayapti va takomillashib boryapti ham.

1994-yilning 23-aprelida Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi tashkil etildi. 1999-yili Respublika Ma'naviyat va ma'rifati kengashi tuzildi. Unga hozirgi paytda mamlakat Prezidenti raislik qiladi. Mintaqa va hududning birinchi rahbari — o'sha mintaqaviy va hududiy Ma'naviyat va ma'rifati kengashi raisi. Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim tizimida milliy mafkura va ma'naviyat asoslari, u bilan bog'liq ta'lim-tarbiya tizimi mavjud. Ommaviy axborot vositalari, madaniyat tashkilotlari, adabiyot va san'at mohiyat e'tibori bilan bevosita milliy mafkura va ma'naviyat targ'ibiga xizmat qiladi.

Ammo hayot har kuni, har soatda jamiyat oldiga yangi-yangi, xilma-xil, ba'zan hatto kutilmagan masala qo'yadi va u oqilona yechim kutadi. Oqilona yechim

esa xalqning orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, qiziqishlari kelib chiqishi, eng muhimi, unga aslo zid kelmasligi kerak. Demak, milliy mafkura ham, bunga bog'liq holda ma'naviyat ham tinimsiz ravishda zamonga mos xulosa va pozitsiyani talab etadi. Milliy mafkura va ma'naviyat sohasining murakkabligi ham ana shunda.

Fikr va g'oya maydoni hamisha ikkiga bo'linadi. Jamiyatda ezgu g'oyalar yonida buz'g'unchi g'oyalar ham yuraveradi. Xalq maqolida donolarcha aytilganidek, el og'ziga elak tutib bo'lmaydi. Elak-ku tutib bo'lmas, biroq bu ikki bir-biriga zid g'oyalarni tinimsiz to'qnash kelaveradigan jamiyatda fuqaro unisiga ishonimni yo bunisigami? Bu yog'i og'ir masala, hatto o'ta murakkab jarayon. Chunki har kimning ixtiyori o'zida-da. Shunday ekan, hammaning ham aynan ezgu g'oyalar tarafdori bo'lishiga kim kafolat beradi? Eng yomoni, tarqatilyotgan har qanday fikr, xabar, g'oya yoki mafkura orqasida turgan manfaatdor kuchlar bor.

Keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlar kutilmagan darajada kuchayib ketdi. Bugun internetga o'rgangan odamni bir kun undan uzib qo'ying, qani, nima bo'ladi? Olamni boshiga ko'taradi. Yashirib nima qildik, hozirgi zamonda odam bolasing, katta zarurat bo'lmasa, bir kun ham ovqat yemay, suyuqlik ichmay yashashni tasavvur qilib bo'lmagani singari, qo'lida zamonaviy telefoni yo kompyuteri bor kishilarning ijtimoiy tarmoqlarsiz bir kunini o'tkazishini ham aqlga sig'dirib bo'lmay qoldi.



Mafkura va ma'naviyatning biz yuqorida sanagan tizimlarida-ku muayyan darajada "elak" mavjud. Ehtimol, ularning ezgu g'oyalar targ'iboti bilan shug'ullanishini ta'minlash, faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatish, qaysidir ma'noda ishini tartibga solishga erishish mumkindir. Lekin ijtimoiy tarmoqlar orqali tinimsiz, har kuni, har soat, har daqiqaga, har soniyada O'zbekiston xalqining ong-tafakkuri va qalbini egallashga qaratilgan buz'g'unchi g'oyalarga qarshi qanday kurash olib boramiz?

Bugun bu milliy mafkura va ma'naviyat ishini mustaqillikning dastlabki chorak asridagidan ko'ra tamoman boshqa daraja va texnologiyalar asosida olib borishni taqozo etyapti. Shunday ekan, kimlardadir eski bo'lib tuyuladigan dono gapni qayta-qayta takrorlashdan aslo charchamaymiz: fikrga qarshi — fikr, g'oyaga qarshi — g'oya, jaholatga qarshi — ma'rifati bilan javob qaytarishga majburmiz. Hayotning o'zi shuni talab qiladi. Zarurat shuni taqozo etadi.

Ko'ngilda bir tahlil mavjud: keyingi yillarda hozirgi 30 yoshgacha bo'lgan aholimizning ong-tafakkurini shakllantirishda ko'p narsani boy berib qo'yadimikmi? Bugun ba'zilar qo'yib bersangiz, hatto "milliy mafkura", "ma'naviyat" kabi



tushunchalarni "eskirgan", boringki, "ahamiyatsiz" deb biladi. Bu tushunchalar bir qadar kinoya, sarkazm mavzusiga aylanganini ham inkor etib bo'lmaydi.

Xo'sh, nima qilmoq kerak? Bu savolga chiroyli so'zlar bilan, ikki og'ziga qilib yoki dabdurduridan javob qaytarishning hech iloji yo'q.

Shuning uchun avval bugun bizga aynan nimalar ko'proq tahdid solayot-

So'nggi yillarda jamiyatimizda vaziyat o'zgarib, yangilanib ketdi. Albatta, milliy mafkura va ma'naviyat borasida noan'anaviy yondashuvlar kerak. Biroq mafkuraviy va ma'naviyat ma'rifiy sohada usul birlamchi emas. Targ'ibotda odamga fikriy ta'sir o'tkazishning har qanday, ya'ni cheksiz usul va uslublaridan foydalanaverish, milliy mafkura va ma'naviyat targ'ibotida an'anaviy usullarni ham, zamonaviy usullarni ham birday qo'llash kerak.

Ba'zan ijtimoiy-ma'naviy muhitni aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarni asosida aniqlamoqchi bo'larni. Albatta, hech kim bunga qarshi emas. Ammo, ishonilgisi, bunday so'rovlarni yo'li asl manzarani to'liq tasavvur qilish imkonini bermaydi. Birinchidan, so'rovlarda muayyan savollarga beriladi, xolos. Ikkinchidan, bunda baribir aholing juda-juda oz qatlamiga qamrab olinadi. Uchinchidan, bizda hozircha bunday paytlarda odamlarimiz yuradigani chinakam, asl munosabatini ifodalashdan ko'ra, ko'proq boshqalar nima deyaotganiga qarab ish ko'rishga moyilroq.

Agar ikki kishi so'zlashayotgan har qanday makon mafkura poligoni bo'lsa, milliy mafkura va ma'naviyat holatini aniqlashirishning juda ko'p tarmoqlarga ega kompleks tizimi ishlashi zarur. Milliy mafkura va ma'naviyat masalasini, hayotdan, boringki, siyosat va iqtisodiyotdan ayri, faqat axloq-odob, ma'rifati, madaniyat, adabiyot, san'atdangina iborat, deb tushunadiganlar jiddiy xato qiladi.

Huqiqat fikriy kurashda oydinlashadi. Shunday ekan, bugun jamiyatga tahdid ganini bir karra nazardan o'tkazishga to'g'ri keladi. Mustaqilligimizning 32 yilligini nishonlayotgan paytimizda ham eski davmi qo'masah xavfi mavjud. Holbuki, ikki jihatdan sho'ro davrini oqlashga aslo haqqimiz yo'q. Birinchidan, biz mustamlaka edik. O'tmishda bo'lsin, hozir bo'lsin, kelajakda bo'lsin, mustamlakachilikni aslo-aslo oqlab ham, qo'masah ham, targ'ib qilib ham bo'lmaydi. Bu — zanjirband sher-nim ozod etilganidan keyin yana o'sha temir bog'ichini sog'inishidagi gap. Ikkinchidan, kommunistik mafkura, ta'bir joiz bo'lsa, 74 yil insoniyat jamiyati ustida siyosiy eksperiment o'tkazdi. Boylar mulkini qurol bilan tortib olib, ishchi va dehqonga berish g'oyasi bilan davlat mulkiga aylantirdi. Insonning ichki tabiatiga zid, sun'iy "sotsializm" degan bir ijtimoiy tuzum qurdi. Odamlarni kelajakda qurilajak "kommunizm" degan utopik bir jamiyat va'dasi bilan aldadi. Holbuki, xalqaro me'yorlar siyosiy eksperiment u yoqda tursin, hatto ayrim davolash usullari bo'yicha odamlar ustida eksperiment o'tkazishni ham taqoqlaydi. Bu siyosiy eksperiment o'zini mutlaqo oqlamadi: sotsializmni ilk bor joriy etgan davlatning o'zi undan birinchilardan bo'lib voz kechdi.



solayotgan yot g'oyalar aynan nimalardan iborat? Kimlar bu g'oyalar orqasida turibdi? Aholining aynan qaysi toifasi yot g'oyalar ta'siriga oson tushib qolyapti? Qanday sabab va omillarga ko'ra bu toifa odamlar fikran og'yapti? Bu holatlarning jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy sabablari nimalardan iborat?

Bugun axborot maydonida O'zbekistonimizda oshkora yo pinhona tarzda davlat va xalq o'rtasini buzishga qaratilgan qattiq kurash ketyapti. Bundan ko'z yumishning aslo imkoni yo'q. Shu maqsadda dushmanlarimiz ijtimoiy tarmoqlardan juda unumli foydalanmoqda. Xalq ongida shunday tasavvur uyg'otilyapti, go'yo davlat idoralarda ishlayotganlarning ko'pchiligi o'g'ri, kazzob, poraxo'r emish. Astag'firulloh! Go'yoki davlat idoralari xodimlarining faoliyati faqat mamlakat boyluklarini o'zlashtirish, xalqni talashdangina iborat bo'lib qolgan. Holbuki, mustaqillik bayramida nimani nishonlaymiz o'zi? Aynan davlatga ega bo'lganimizni? Amir davlat xalqning eng katta boyligi emasmi?

Bir narsaga aniqlik kiritib olaylik davlatni qoralash — boshqa, davlat idoralari xodimlari faoliyatidan norozilik — tamoman boshqa narsa. Yot g'oyalar targ'ibotchilari aholing katta qismi ana shu ikki nozik tushunchani farqlab olovlashdangina foydalanib, davlat idoralari xodimlari faoliyatini tanqid qilish orqali zimdan davlatning o'ziga zarba berib, fuqarolarni o'z milliy davlatiga qarshi qayrashni ko'zda tutyapti. Noqonuniy faoliyati bilan xalqning o'z milliy davlatiga ishonchini yo'qotishiga sabab bo'layotgan xodimlar yo'q emas, albatta. Ammo davlat ularning kasriga qolmasligi kerak.

Ba'zi professional jurnalistlar ham "Ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi — xalqning dardini davlatga aytish", deganiga ko'p guvoh bo'larni. Nima, ommaviy axborot vositalari davlat siyosatini xalqqa yetkazish bilan shug'ullanmasligi kerakmi? Ammo ayrim ommaviy axborot vositalarining faqat davlat siyosatini targ'ib qilish bilangina shug'ullanib qolayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Yoki "xalq dardini davlatga yetkazaman", degan aqida bilan bilib-bilmay davlat siyosatiga befarq yoki qarshi targ'ibotga o'tib ketilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Har qanday tanqid pragmatik bo'lishi kerak. Davlat siyosatining ayrim jihatlari haqida asosli tarzda mulohaza bildirish madaniyati shakllanishi zarur.

Ijtimoiy tarmoqlarda davlat, Konstitutsiya, qonunlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarga ochiqdan-ochiq provokatsion munosabatlar bo'lyapti-yu, hech kim bunga rasmiy, asosli, mantiqli, professional darajada javob qaytarmayapti. Bir xato



fakt, qarash, g'oya inkor etilmas ekan, xalq uni shundayicha qabul qilmaydi, deb kim kafolat beradi?

Mafkura borasida esa mavzu yoki mamlakatning katta-kichigi bo'lmaydi.

Achchiq haqiqat shuki, tabiatiga ko'ra, keng omma fikran og'ishga moyilroq bo'ladi. Dushman shundan foydalanadi. Demak, g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviyat ma'rifiy jihatdan xalqni to'g'ri yo'lga yetaklash shu sohalariga mas'ul ziyolilarning birlamchi vazifasidir. Hozirgi murakkab mafkuraviy va ma'naviy vaziyat ilg'or ziyolilarimizning nihoyatda faollashishini taqozo etadi. Ziyolilarni faollashirishning tarixda ming karra sinalgan bittagina asosiy yo'li bor. Bu — ular faoliyatini moddiy manfaatdorlik asosiga qurish. Masalan, agar ommaviy axborot vositalari yaxshi qalam haqi to'lasa, ishonavering, ijod ahli, so'zsiz, faollashadi. Bitta lokomotiv ko'plab vagonlarni tortgani singari munavvarlarimiz ham mamlakat ahlini to'g'ri yo'lga boshlashi kerak.

Shu yilning 30-aprelida mamlakatimiz hayotida muhim tarixiy hodisa yuz berdi: referendumda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. U 1-maydan kuchga kirdi. Endi Bosh qonunimizni omma orasida keng targ'ib etishimiz kerak. Biroq Konstitutsiya targ'ibotini noprofessional darajalarga tushirib qo'yishning foydasidan ko'ra ziyoni ko'p. Bu odamlarni bezdiradi. Istaysizmi-yo'qmi, ishga yolg'on aralashadi. Haqqoniylik va samimiylik o'rini yuzakillik, yasamachilik, yaltir-yultirchilik, "ura-ura"chilik va soxtakorlik egallaydi.

Amalda Konstitutsiya va qonunlarni bilmagani fuqarolar faqat va faqat rahbarlari topshiriqini bajaradi, xalos. Bu topshiriqlarning qonuniy yoki qonunga zid ekanini bilan mutlaqo qiziqmaydi. Chunki bilmaydi-da. Aholining ongiziligi hamma zamon va makonlarda ham bir hovuch odamlarga juda-juda qo'l keladi, bu totalitarizm, monopoliizm, avtoritarizm, diktatura, byurokratiya va bashariyatni orqaga tortadigan yana qanchadan-qancha illatlarning soyiga suv quyadi.

Fuqaroning Konstitutsiyani bilmasligi oxir-oqibat uning ziyoniga ishlaydi. Chunki u aynan bilmagani uchun o'ziga berilgan huquq va erkinliklardan foydalanmaydi. Taraqqiyot qonunlarida belgilangan asosda yuz berishi kerak. Bo'lmasa, boshboshdoqlik avj olishi, ya'ni davlat ham chegaradan chiqishi, xalq ham davlatga bo'yusunmay qo'yishi mumkin.

Konstitutsiyani yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad — taraqqiyot va yana taraqqiyot. Nima qilsak qilyalikka, mamlakatimiz imkon qadar tezroq ilg'orlar safidan o'rin olin.

Taraqqiy etmasak, bo'lmaydi. Axir iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ayrim yon qo'shnilarimizdan ham yillar orqada qoldik-da. Buning ham obyektiv, ham subyektiv sabablari bor, albatta. Markaziy Osiyo umumaholisining teng yarmi O'zbekistonimizda istiqomat qiladi. Lekin bizda hudud ozroq, aholi ko'p. Bizning yukimiz juda og'ir. O'zimizning muammolarimiz ham oshib-toshib yotibdi.

Biroq mamlakat jadal rivojlanish bosqichiga kirganini ko'zimiz bilan ko'rib, qo'limiz bilan ushlab, sezib turibmiz. Keyingi yillarda poytaxtimizning Sergeli va Yangiyo'l tumanlari hududida 1 million aholi uchun yangi uy-joylar bunyod etildi. Bu — katta bir shahar, degan gap. Ana shu ko'p qavatli yangi imoratlar yuridan yer usti metrosi o'tkazildi. Unda yursangiz, o'zingizni boshqa bir shahardadek his qilasiz.

Bizda qanday madaniyat, qanaqa yuksak tamaddun ravnaq topgan, ajdodlarimiz bashariyat umumtaraqqiyotiga qanday ulkan hissa qo'shgan? O'sha xalqning avlodi sifatida rivojlanishga har birimiz qo'limizdan kelgani qadar hissa qo'shishimiz zarur. Shuning uchun yangilangan Konstitutsiya davlatning gardaniga ham, xalqning bo'yigina ham yangi-yangi vazifalar yuklaydi. Endi shuni og'ishmay amalga oshirish shart bo'ladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.
43927 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 01:20